

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES

2023 Vol. 3 (2)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay'ati

Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidaxon Bumatova, Ulug'bek Yo'ldoshev, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychiyeva, Ra'noxon Xudjayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Gulnoraxon Niyazova, Ma'suma Obidjonova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Qiyosiy adabiyotshunoslik chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O'zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy editor-in chief:	Uzok Djurakulov Nozliya Normurodova Ziyoda Teshaboeva
Executive secretary:	Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Bahodir Kholikov, Komiljon Hamroev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidakhon Bumatova, Ulugbek Yuldoshev, Nurmurod Chinikulov, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychieva, Ra'nokhon Xudjaeva, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya Tukhtakhadjaeva, Gulnorakhon Niyazova, Ma'suma Obidjanova.

About the Journal

Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literature Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Komiljon Hamroyev	
Hikoyada badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati.....	6
Azamat Xayrullayev	
Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik o'ziga xosligi	13
Hasan Hamzayev	
O'zbek rivoyatlarida sharqona ruhning ifodalanishi	22

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Hamida Juraqobilova	
O'zbek va fransuz tillarida metafora hodisasining o'rganilishi	31
Manzura Muratova	
Fe'l semantikasini kognitiv modellashtirish.....	41

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Fahriddin Yarmanov	
Fransuz-o'zbek tarjimachiligi tarixi va amaliyoti.....	52
Sunnat Abdunabiyev	
Ibn Battutaning "Sayohatnoma" asarida milliylikka oid so'zlarning tarjimada berilishi.....	61

SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI

Ra'noxon Xudjayeva, Hamroyev Ulug'bek	
Sinxron tarjima jarayonida so'z birikmasi va gap darajasida adekvatlikka erishish usullari	77

CONTENT

TYPOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Komiljon Hamroyev

Hikoyada badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati.....6

Azamat Xayrullayev

Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik o'ziga xosligi 13

Hasan Hamzayev

O'zbek rivoyatlarida sharqona ruhning ifodalanishi 22

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Hamida Juraqobilova

O'zbek va fransuz tillarida metafora hodisasining o'rganilishi 31

Manzura Muratova

Fe'l semantikasini kognitiv modellashtirish..... 41

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Fahriddin Yarmanov

Fransuz-o'zbek tarjimachiligi tarixi va amaliyoti..... 52

Sunnat Abdunabiyev

Ibn Battutaning "Sayohatnoma" asarida milliylikka oid so'zlarning tarjimada berilishi..... 61

SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI

Ra'noxon Xudjayeva, Hamroyev Ulug'bek

Sinxron tarjima jarayonida so'z birikmasi va gap darajasida adekvatlikka erishish usullari 77

Hikoyada badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati

Komiljon Hamroyev¹

Abstrakt

Maqolada Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasi misolida badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati o'rganilgan. Mazkur hikoyadagi Ramazon va Shodi garang obrazlarining ichki dunyosi batafsil yoritilgan. Hikoyada badiiy detal va xronotop shakllari obrazlar tasviri bilan qiyosiy aspektda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *hikoya janri, badiiy kompozitsiya, badiiy ritm, xronotop, badiiy detal, peyzaz, badiiy nutq, badiiy obraz, telba obrazi.*

Asar kompozitsiyasi faqat poetik obraz bilan semantik-struktural munosabatdagina o'zini to'la oqlaydi va bir butun tizimga aylanadi. "Ma'lumki, kompozitsiya haqidagi masala ayrim qism va parchalar orasidagi munosabatni analiz qilish bilangina chegaralanmaydi. Bundan tashqari o'zaro aloqadorlik, asarda ishtirok etuvchi personajlarning asosiy vazifani hal qilishdagi roli va ularni o'z o'rniga qo'ya bilish mahoratini analiz qilish ham kompozitsiya masalasiga kiradi. Qahramonlarning asardagi umumiy g'oyaviy vazifani hal qilishdagi rolini analiz qilish ayniqsa muhimdir", deb yozadi bu haqda M.Qo'shjonov¹.

Ayniqsa, hikoya janri tarkibida badiiy obrazlar butunligini ta'minlash va bosh hamda ikkinchi darajali personajlarni joylashtirishda kompozitsiyaning roli muhim. Badiiy asar kompozitsiyasining har bir elementi: sarlavha, epigraf, prolog, peyzaj, qistirma epizod, portret, detal kabi komponentlar badiiy obraz tabiatini belgilashda o'zaro poetik munosabatga kirishib, muallif va asar badiiy konsepsiyasini ifodalaydi. Hikoyada badiiy obraz tasviri kompozitsion qonuniyatlar talabi asosida o'z tasdig'ini topadi.

Badiiy obrazni ijodkorning badiiy asardagi aksi ham deyish mumkin. Shu ma'noda har bir obraz ortida yozuvchining dardi, o'y-mushohadalari va g'oyaviy-badiiy niyati yotadi. "Yozuvchi qay darajada mohir bo'lmasin, – deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov, – asar uchun obrazlarni jalb qilishda juda ham

¹ Hamroyev Komiljon O'lmasovich – filolgiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: k.hamrayev@gmail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8600-1554

Iqtibos uchun: Hamroyev, K. 2023. "Hikoyada badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati". O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2): 6-12.

erkin harakat qila olmaydi. San'atkor bu ishda doim ikkita mantiqqa asoslanadi: ulardan biri – hayot mantig'i, ikkinchisi muayyan asarda kuzatilgan badiiy mantiqdir"².

Haqiqatan ham, bugungi o'zbek hikoyachiligida hayotiy va badiiy mantiqqa asoslanib yaratilgan obrazlarning yetakchiligini e'tirof etish kerak. Biroq mazkur janrda yozilgan ayrim hikoyalarda badiiy obrazlar tabiatidagi evrilishlar, o'z navbatida, asar kompozitsiyasining strukturasini ham sezilarli o'zgartiradi. Agar Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi obrazlar sistemasiga diqqat qilinsa, yuqoridagi fikrlar yanada oydinlashadi. Hikoyada obrazlar kompozitsion sathda shunday joylashadiki, unda avtor va badiiy obrazning parallel tasviri, qahramon portreti hamda personajlarning badiiy g'oyaga muvofiq xatti-harakati, semantik-struktur sthda poetik ma'no tashiydi. Qahramon obrazi hikoya markazida personajlar va syujet voqealarini birlashtiruvchi yagona poetik tasvir ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur hikoyada badiiy obrazlar uch yo'nalishda tarmoqlanib, kompozitsion butunlik hosil qilgan. Bular: bosh qahramon va uning atrofidagi personajlar, roviy (muallif), Shodi garang obrazlaridir. Bu obrazlar o'z atrofida maxsus badiiy xronotoplar hosil qilgan bo'lib, hikoya voqealarining sodir bo'lish vaqti nuqtai nazaridan bir-biridan farqlanadi: 1. Bosh qahramon Ramazon obrazi va uning atrofidagi personajlar tasvirlangan zamon. 2. Povi – muallif obrazi hikoya voqealarini bayon etgan zamon. 3. O'tgan zamonda yuz bergan Shodi garang obrazi bilan bog'liq voqealar tasvirlangan vaqt. Bular hikoya kompozitsiyasi qonuniyatlari talabiga muvofiq badiiy matn to'qimasida poetik munosabatga kirishadi. Bundan tashqari, hikoyada har bir lavha qahramon obrazi orqali yozuvchining badiiy niyatiga bo'ysundirilgan. "U har yili xuddi bir paytda – yerdan qor ketib, tentak shamollar esa boshlagan ko'klam kunlarida kelardi; shamollarga qo'shilib, shamoldek to'polon bilan kirib kelardi"³. Ilk jumladagi ushbu tasvirda qahramon obrazining botini va zohiriga xos poetik belgiga ishora seziladi. "Yerdan qor ketib, ko'klam kunlarida kelish"i obraz zohirini yoritib, "tentak shamollar esa boshlagan chog'da shamolga qo'shilib shamoldek to'polon bilan kirib kelish"i botin hatti-harakati ifodalagan. Qahramon obrazi tabiatidagi bu ikki ma'no hikoya kompozitsiyasining tashqi va ichki ritmik ohangida payvandlanib, butunlik kasb etadi. Hikoya kompozitsiyasi sathida qahramon obrazining tashqi olami, portreti bir maromda tasvirlansa, uning ichki dunyosini yoritish funksiyasi "Chantrimore-ye", "Kalamakatore" so'zlariga yuklanib, Shodi garang obrazi bilan asoslangan. Hikoyada bosh qahramon yozuvchining nuqtai nazarlarini jamlovchi obraz sifatida asar qismlari bilan poetik aloqaga kirishadi. Ayniqsa, roviy obrazi badiiy matn tarkibida direjyorlik vazifasini bajargan. Hikoyada tasvirlangan ijodkor personajining avtobiografiyasi muallif obrazini yodga soladi. Hikoyadagi mana bunday lavhalar yuqoridagi qarashlarga turtki beradi.

“Ramazon, jo’ra, jo’rajon, mana — qo’limdan kelganicha seni naql qildim. Men bu narsani sen uchun, senga bag’ishlab yozdim. Ba’zi o’rinlarda oshiribroq yuborgan bo’lsam, ko’nglingga olmassan. Bu ish qurg’ur o’zi shunaqa, shunday qilmasa bo’lmaydi”⁴.

Umuman olganda, muallif obrazi badiiy asar kompozitsiyasining turli ma’no qatlamlarida o’zini namoyon qiladi. Xususan: a) “biz muallifni asardan tashqarida, o’z hayoti bilan yashayotgan biografik odam sifatida bilamiz. Ammo u bilan muallif sifatida asarda ham uchrashamiz. Birinchi navbatda biz uni (uning faolligini) asar kompozitsiyasida ko’ramiz. U asarni qismlarga (qo’shiqlar, boblar va hokazo) ajratadi. Bundan qismlar, albatta, bevosita tasvir etilgan xronotoplarda qandaydir tashqi ifoda oladi. Bu kabi qismlashtirish (Asar kompozitsiyasini shakllantirish U. J.) turli janrlarda turlicha sodir bo’ladi”⁵. Masalan, hikoya janrida sarlavha, epigrafi, prolog, epilog, ilk va oxirgi jumla kabi qismlarda muallif obrazining ta’siri yaqqol ko’rinadi. Negaki, ushbu komponentlar, avvalo, ijod jarayonida muallifning tanlovi o’laroq badiiy asar tarkibidan joy oladi. Ularning har birida yozuvchining dunyoqarashi, estetik didi va badiiy g’oyasi yashaydi. M.Baxtin ta’kidlaganidek, adibning badiiy rejasi kompozitsiyada o’z aksini topadi. Birgina Shukur Xolmirzaevning “Bodom qishda gulladi”, Erkin A’zamning “Anoyining jaydari olmasi” hikoyalarining sarlavhasida ifodalangan ma’no qatlamlari muallif obrazi nuqtai nazarining yorqin aksi hisoblanadi;

b) muallif va qahramon obrazi aro poetik transformatsiya yuz beradi. Boshqacha aytganda, qahramon obrazining tasviri to’laligicha yoki qisman yozuvchining avtobiografiyasi bilan bog’liq bo’ladi. Bundan tashqari, har qanday epik janr namunalarida qahramon obrazi muallifning qandaydir fe’l-atvorini, qaysidir fazilatini o’zida mujassam qiladi.

v) muallif obrazi badiiy asar tarkibida personajlardan biri sifatida harakat qiladi. Ko’pincha bunday obrazlar atrofidagi personajlardan bir pog’ona balandda turib, syujet voqealarini kuzatadi va bayon qiladi. “Buni mana bunday tushuntirish mumkin: qarshimizda ikkita voqea, ularning biri haqida asarda hikoya qilinadi, biri esa bevosita hikoya qilish jarayoni haqidagi voqeadir (bularning ikkinchisida tinglovchi-o’quvchi o’laroq o’zimiz ham ishtirok etamiz). Ushbu voqealarning har biri turli zamonlar (turli oraliqlar)da, turli makonlarda ayni paytda, o’zaro bog’liq holatda yuz beradi. Ammo biz voqealar to’liqligiga uning zohiriy materiallik ma’lumotini, matnini, unda tasvir etilgan dunyoni, muallif-ijodkor va tinglovchi-o’quvchisini qo’shgan holda uni asar sifatida belgilashimiz mumkin bo’ladi”⁶. “Bodom qishda gulladi” hikoyasidagi yozuvchi, “Anoyining jaydari olmasi”dagi shoir mana shunday obrazlar sirasiga kiradi;

g) muallif obrazining navbatdagi ko’rinishi epik janrda tasvir aslahalarining yangilanishi bilan bog’liq. XX asrning 80-90-yillaridan boshlab,

o'zbek hikoyachiligida voqelikni ifoda etish shakli, qahramon obraziga bo'lgan munosabat o'zgardi. Yozuvchilar ob'ektiv voqelik tasvirini berishdan ko'ra, insonning his-tuyg'u kechinmalari, ruhiy iztiroblari ifodasiga urg'u berishdi. Bu esa badiiy asarda qahramon portreti tasvirdagi badiiy yangilanishga olib keldi. Natijada bunday asarlarda o'quvchi ko'z o'ngida "epik qahramon" sifatida muallif obrazi gavdalandi. Olim Otaxonovning "Xotira va xayollar", Nazar Eshonqulning "Oq alanga" hikoyalari mana shunday asarlar sirasiga kiradi. Bu tipdagi asarlarning syujet markazida qahramon obrazini tasvirlashdan tiyilib, uning ichki olamini yoritish bilan o'quvchi va muallif obrazi o'rtasida badiiy muloqot o'rnatiladi. Jumladan, badiiy asar tarkibidagi o'zgarishlar, ya'ni detal, obraz, syujet, uslub kabi komponentlar tasviridagi yangiliklar ortida ham aslida muallif obrazining "men"i yotadi.

Yuqoridagi fikrlarni jamlab qaralsa, badiiy asar kompozitsiyasiga tartib berishda va ijod jarayonidagi psixologik holatlarni badiiy matn tarkibida namoyon bo'lishi yo'lida muallif obrazi ko'zoynak vazifasini bajaradi. Yozuvchi hikoyada qahramon obrazi tabiatidagi omilik, tantilik va chapanilik ortida hayotning turfa manzaralarini tasvirlagan. Hatto sarlavha va badiiy detal kabi kompozitsion unsurlar ham qahramon obrazining ma'no qirralarini ifodalashga xizmat qilgan. "Uyga kirilgach, egasidek betayin — qulflansa ochilmaydigan, ochilsa qulflanmaydigan antiqa chamadon ming bir amal-taqal bilan ochiladi. Xona kuzaki olmalarning hidiga burkanadi. Bir yog'i qirmizi, bir yog'i xol-xol, bandining tubi qizil qumga to'lgan olmalar; ko'rimsiz, jaydari olmalar. Bolaligingiz olmalari, bolaligingiz hidlari. Boshingiz aylanib ketadi"7. Olma detali hikoyada vaqt va mehr-oqibat timsoli sifatida ramziy ma'no tashiydi. Masalan, Ramazon xarakteriga na zamon, na makon o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Uning do'st-birodarlariga bo'lgan mehr-oqibati sofdilligi va samimiyati vaqt sinovida badiiy sayqal topgan. Birinchi jumladagi kontrass tasvir yuqoridagi parchada ochilsa yopilmaydigan, yopilsa ochilmaydigan "Barnovul", deb yozilgan chamadon va ko'rimsiz, jaydari, biroq bolalik xotiralarini yodga soladigan shirin olma detaliga o'tadi. Chamadon detali qahramon qiyofasining sirtini ifodalab, syujet voqealarini uyushtirish fuksiyasini bajargan. Bu detal hikoya kompozitsiyasining tashqi strukturasiida poetik komponent sifatida kelsa, olma detali qahramon obrazining botinini tasvirlab, hikoya semantikasiga aloqador bo'ladi. Hikoyada Ramazonning "Barnovul"ga o'tlanishi, chayqovchi sifatida ayblanib, sud qilinishi va qamalib chiqish voqealari zanjiri chamadon detali bilan asoslangan bo'lsa, olma detali hikoyada sarlavha, badiiy detal va qahramon obrazi muallif nuqtai nazarining in'ikosi sifatida bir-biri bilan poetik munosabatga kirishib, hikoya kompozitsiyasining ajralmas qismiga aylangan.

Bundan tashqari, hikoyada badiiy obraz bilan kompozitsiya munosabati yozuvchining portret yaratish mahoratida ko'rinadi. Har bir

obrazga xos portret yaratish maqsadida ularning xatti-harakatlari, gap-so'zlari, tashqi qiyofalari tasviri orqali kompozitsion sathda inson obrazi ifodalangan. Masalan, yozuvchi hikoyadagi tosh obrazining portretini quyidagicha tasvirlagan. "Xudo ham turqni o'ylab bergan: kalla tarvuzdek, qorin — tarvuzcha, barra — korsonning o'zi, sergo'shtlikdan ko'zlar ko'rinmaydi, tilla tishlar doim tomoshaga irshayib turadi. Kattayu kichik uni "aka" deyishga majbur, o'zi esa hammani, avji kelsa, otasi tengini ham sensirayveradi"⁸. Hikoyada qahramon obrazining yurish-turishi, gap-so'zlari, mimikasi bilan o'zini o'zi namoyon qiladi. Tosh obrazining portretini tasvirlash uchun adib shevaga xos so'zlardan va tashqi ko'rinishning tavsiflash usulidan foydalangan. Yuqoridagi ko'chirmada "Tarvuzdek, tarvuzcha" kabi o'xshatish biroz g'alizligi bilan esda qoladi. Tabiiyki, bunday obraz portreti tasviridagi g'alizlik hikoya kompozitsiyasining butunligiga putur yetkazishi ham mumkin. Biroq yozuvchi Shodi obrazining portretini tasvirlar ekan, hikoyadagi bunday kamchiliklarning hammasi unut bo'ladi. Bu obraz zimmasidagi yuk ayniqsa hikoya kompozitsiyasini qurishda qo'l kelgan.

Shodi qistirma epizodik obraz sifatida hikoya tarkibida bir necha badiiy vazifalarni bajargan. Yozuvchi telbasifat, masqaraboz obrazi timsolidan quyidagi maqsadlarda foydalangan. Bular: a) muallifning g'oyaviy niyatini ifodalash; b) hikoyada badiiy ritm hosil qilgan "chantrimori", "kalamakatore-ye" so'zlarini izohlash, hikoya xronotopining o'tmishi va bugungi shakllarini taqqoslash; v) badiiy syujet voqealarini payvandlash va sahnaga xos tasvir usulini yaratish kabilardir. "Chantrimore» — Kalamakatore... Shodi garang... Bolaligimiz ertagi, zavqi, quvonchi. Maktabimizning yonida yashardi. Qachon qaramang, iljayib turadi. Basharasiga baqrayib so'ksangiz ham iljayardi — eshitmasdi, qulog'i og'ir edi. Qishin-yozin mudom bo'yin-boshini malla qiyiq bilan tang'ib, quloqchin bostirib yurardi. Oqshomlari eshigi og'zidagi supachada, go'yo hech kim eshitolmaydigan bir kuyni tinglayotgandek, ko'zlari chala yumuq, mudrab-chayqalib o'tirardi. Ahyon-ahyonda o'tkinchilardan birortasiga qarab «Chantrimore!» deb hayqirar, «Chantrimore!» desangiz, «Kalamakatore-ye!» deb javob qaytarar edi"⁹. Ushbu obraz hikoyaning syujet chizig'i bo'ylab harakat qilmasa-da, asar kompozitsiyasining bezagiga aylangan. Hikoya tarkibida bu personaj shoir obrazining xotirasida gavdalanib, "chantrimore" va "kalamakatore-ye" so'zlari lug'aviy ma'nosining ramziy timsoli sifatida tasvirlangan. Bir qarashda ma'nosizdek tuyulgan "chantrimore" va "kalamakatore-ye" so'zlari qatidagi mazmun qirralari Shodi obrazi orqali oydinlashib, hikoya semantikasining strukturasi ritmik ohang hosil qilgan. Bolalikning beg'ubor damlari va hayotning turfa xil so'qmoqlarida o'zligini izlayotgan inson qiyofasini tasvirlashda bu obraz personajlarning badiiy funksiyasi hamda hikoya g'oyasi bilan poetik aloqaga

kirishgan. Bu tipdagi obrazlar badiiy asar tarkibida: “o‘z doirasida o‘ziga xos dunyochalar, xronotoplar hosil qiladi”¹⁰.

“Qish kunlari yer muzlaganda biz unga suv sepib, ko‘cha og‘zida Shodi garangning ishdan qaytishini poylardik. U bamaylixotir yurib kelib, xuddi kar emas, ko‘rdek, oyna misol yaltirab yotgan sirpanchiqqa oyoq qo‘yar va ana shu zahoti bor bo‘yi ko‘tarilib tushar, boshidagi quloqchin otilib ketib, o‘zi sirg‘algancha darvozasi tagiga borib qolar edi. Biz esa torko‘chani qiyqiriqqa ko‘mib yuborardik: “Chantrimore! Kalamakatore! Chantrimore! Kalamakatore!...” Shodi garang alpong-talpong joyidan turib, quloqchiniga qarab chopardi. So‘ng ko‘zlarini olaytirib, bizga po‘pisa qila-qila hovlisi tomon yurar, hayal o‘tmay, choponi barini olmaga to‘ldirib chiqar va uni qorning ustiga qubba shaklida terib qo‘yib, o‘zi uyiga kirib ketar edi. Biz bitta-bitta sirpana borib, olmalarni qo‘yin-qo‘njimizga joylab, “Chantrimore! Chantrimore!” deya suron solgancha ko‘cha boshiga qaytardik. Shodi garang esa darvozasidan boshini chiqarib hayqirib qolardi: “Kalamakatore! Kalamakatore!...”¹¹

Bizningcha, Shodi garang kabi original obrazning hayot tarzi, o‘y-mushohadalari hikoya personajlarinikidan mutlaqo farq qiladi. Ko‘p o‘rinlarda bu obraz tabiatiga xos xususiyatlar badiiy adabiyot namunalariga ko‘chib yuradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi Qovoq devona obrazi bilan Shodi garang obrazini taqqoslab qaralsa, ayrim nuqtalarda umumiylik kasb etadi. Bu obrazlarning xatti-harakatlari, qiliqlari atrofdagi odamlar tomonidan kulgu qilinishi, badiiy asar tarkibidan shaklan kichik, mazmunan keng o‘rin ajratilishi badiiy asar kompozitsiyasida qistirma epizodik obraz sifatida namoyon bo‘lishi bunday fikrlashga yo‘l ochadi¹². Shuningdek, bu obraz yozuvchining g‘oyaviy niyatiga muvofiq hikoyada qahramon obrazining tabiatiga xos ayrim xususiyatlarni ifodalashi, personajlarning niqob ortidagi asl qiyofalarini ko‘rsatishi, syujet voqealari aro ritmik ohang hosil qilishi kabi funksiyalarni bajarishi sabab hikoya kompozitsiyasi bilan botiniy aloqada bo‘ladi. M.Baxtinning quyidagi qaydlari bu obraz tabiatini yanada yorqinroq anglashga xizmat qiladi. “...birinchidan, ular maydon teatri sahnasi, tomosha niqobi, xalq o‘yinlari maydoni bilan o‘ta muhim bog‘lanishga ega; ikkinchidan, birinchisiga bog‘liq ravishda bu siymolarning muhim xususiyati hech qachon to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, ko‘chma ma‘no kasb etishidir. Ularning zohiri – qilgan ishlari va so‘zlagan gaplari asliga nisbatan tamomila teskari mohiyatga ega; nihoyat uchinchidan (bu ham ularning o‘tmishi bilan bog‘liq), ularning mavjudligi o‘zining emas, qandaydir o‘zga olamning hiraroq aksi hisoblanadi”.

Xullas, “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasida badiiy obrazlar uch xronotop doirasida tasvirlangan bo‘lib, ular bir-biri bilan tutashib, yagona badiiy g‘oya atrofida kompozitsion butunlik kasb etgan. Shu bilan birga,

hikoyada kompozitsiya unsurlari obrazlar dunyosini tasvirlashda muhim rol o'ynagan.

Adabiyotlar

Қўшжонов М. Сайланма. 2 жилдлик. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. -Б. 279-280.

Азамов Э. Олам ям-яшил. Т.: Ғафур Ғулом, 1984. –Б.3.

Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Рус тиладан У. Жўрақулов таржимаси. – Т.: Академнашр, 2015. – Б.253.

Азамов Э. Олам ям-яшил. – Т.: Ғафур Ғулом, 1984. –Б.5.

У.Жўрақулов. Биринчи ўзбек романи – “Ўткан кунлар” / Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б.180-183.

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik xususiyatlari haqida so'z boradi. Shu bilan birga adib ijodining individuall xususiyatlari va yozuvsi biografiyasiga oid jihatlar tahlalga tortiladi. Yozuvchi hikoyalarining obrazlari tasnif etilib, "Mung" va "Yozning birinchi kuni" hikoyalari poetikasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: hikoya, individuallik, obraz, xarakter, tugun.

Mustaqillik yillarida Ahmad A'zam, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Xayriddin Sulton, Olim Otaxon, Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro, Luqmon Bo'rixon, To'xtamurod Rustam, Ulug'bek Hamdam, Bahodir Abdurazzoq singari adiblar ijodida o'ziga xos shakl va mazmun, obraz va uslubning, poetik individuallikning yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi adabiy jarayonda Normurod Norqobilov ijodi obrazlar olamining turfa xilligi bilan ajralib turadi. Adib inson va hayvonot, nabotot dunyosini o'ziga xos yo'sinda tasvirleydi. Adib ijodining individualligi ham shunda ko'rinadi.

Adbiyotshunos Sh.Davronova uslub va individuallik haqida "bir-biriga nihoyatda yaqin tushunchalar bo'lsa-da, ayni bir xil hidisa emas. Individuallik uslubga nisbatan kengroq, ya'ni u uslubni ham o'z qamroviga kiritadi. Individuallik yozuvchi ijodining butun bir tizimi bo'lib, uning shakllanish, rivojlanish, ba'zan esa inqirozigacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Uslub esa individuallikni yuzaga chiqaruvchi omillardandir.

Xullas, adabiy jarayon va ijodiy individuallik borasidagi ishlarning ba'zilarida uslub va individuallik tushunchalari o'rtasidagi farq nazardan chetda qoldirilib fikr yuritilgan bo'lsa, yana ayrimlarida bu boradagi qarashlar, ko'pincha, sotsialistik realizm metodi talablari asosida tadqiq etilgan [Dovurova, 2004;5]", – deb yozadi. Adbiyotshunos Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Nodir Normatovlarning nasrining individual xususiyatlarini o'rganib, hikoyalariga ham e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "Erkin A'zam ijodi poetik tasvirdagi o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi.

¹ Xayrullayev Azamat Xoliqovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: azamatxayrulla@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0315-1790

Iqtibos uchun: Xayrullayev, A. 2023. "Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik o'ziga xosligi". O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2): 13-21.

Yozuvchi ijodining poetik individualligi, eng avvalo, uning asarlarida tez-tez va o'rnida ko'zga tashlanadigan yengil yumor bilan xarakterlanadi¹.

Hind adabiyotshunosi "Sen ijodkor bo'lmoqni istasang, barcha shartliliklardan voz kechishing kerak; aks holda sening ijodining ijod emas, atigi nusxa ko'chirish, nusxa ko'chirish bo'lganda ham, qora qog'oz qo'yib nusxa ko'chirish bo'ladi. Sen faqat individual bo'la olsanggina ijodkor bo'lasan; sen olomon psixologiyasining bir qismiligicha qolsang, ijodkor bo'la olmaysan.

Ijodkor birovning izidan bora olmaydi. Ijodkor hayot chakalakzorini yorib o'tib, o'z yo'lini topishi lozim.

Ijod bu – individual erkinlik nash'asidir [Dovurova, 2004;134]." – deb yozadi Osha "Ijod ichki kuchlarni ozod qilish" maqolasida.

Obrazlar xilma-xilligi haqida so'z borganda esa N.Norqobilovning ijodkor sifatida shakllanishiga e'tibor qaratish lozim. Yozuvchi ijodining ilk namunalarini ertaklar yozishdan boshlangani haqida shunday yozadi. "...kaminaning yozuvchilikka havas va ishtiyoqi bolalikda ertaklar tufayli yuzaga kelgan desam sira yanglishmayman", – deya yozadi adib. "...Keyin-keyin esa tengqurlarim orasida o'zim ertak aytishni odat qildim. Ular qolib, katta yoshdagi bolalar og'zimga tikilganini ko'rib hayron qolardim va bilganlarim tugab qolgudek bo'lsa, o'zim ertak to'qiy boshlardim. To'qigan ertaklarimda yovuzlik va yorug'likdan tashqari, hayvonot dunyosiga nisbatan bo'lgan munosabatimu muhabbatim aks etardi. So'ng menda ularni qog'ozga tushirish fikri paydo bo'ldi...

Buning qarangki, taqdir jonivorlarga nisbatan munosabatim o'zgachiligini sezganday, necha va necha bor meni bo'rilarga duch qildi. Itlar haqida gapirmasam ham bo'ladi. Ularning ovozdanoq nima demoqchi ekanligini sezadigan bo'ldim. Chunki, ular menga shunchaki it emas, tabiiy uyg'unlikning jonli bir bo'lagi edi. Sadoqatni o'shalarda ko'rdim, mardlikni bo'rilarda uchratdim. Qishning qirchillama kunlaridan birida qirning tor o'zanida ularning to'rttasiga to'satdan ro'baro' kelgan va azbaroyi qo'rqqanidan yelkasidagi miltiqni olishga ham qurbi yetmagan yigitcha men edim...!²".

Darhaqiqat, o'z xalqining ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-falsafiy ummonidan suv ichmagan hech bir ijodkor qanchalik urinmasin, qanchalik katta adabiyotga da'vo qilmasin, milliy negizdan uzilib qolar ekan. U adabiyot dunyosida hech qanday o'ringa ega bo'la olmaydi. N. Norqobilov bolalikdan xalq og'zaki ijodiga ko'ngil qo'yib katta bo'lgan, uning Chorshanbi baxshi Rahmatillaev, Abdunazar baxshi Poyonovlar haqida yaratgan ocherklari ham buning isboti sanaladi. Ehtimolki, ertakka

¹ Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги. Ф.ф.ном. дисс. Тошкент-2004. Б.134.

² Норқобилов Н. "Ёшлик" журнали. 2010 йил 7-сон.

shaydolikdandir, adibning butun mahorati sezilib turgan, badiiyati yuksak hikoyalaridan birida go'yo ertaklar qaridan chiqib keladigan bir obraz borki, u xuddi ertakdagidek saxovatli, oriyatli, mard kishi obrazidir. Bu "*Chetdagi odam*" hikoyasining qahramoni *Muso fermer* obrazi. U asarda ertaklardagi kabi do'stlikka sodiq, yetimlarga muruvvatli inson sifatida gavdalanadi. U vaqti-vaqti bilan do'stining yetim farzandlariga shirinliklar, ro'zg'ori uchun kerakli hamma narsani hovlining pastidagi jarlik ichiga qo'yib ketadi. Ayni shu Muso fermer obrazning yaralishida adib bolaligidan oshno bo'lgan ertaklarning sezilarli ta'siri ko'rinadi. Demoqchimizki, adib chindan xalq ijodiyotini yaxshi biladi. Uning asarlari qatida xalq hikmatlariyu o'gitlari yotadiki, adib ijodini milliy adabiyot bilan bir butun ko'ra oladigan inson bu gaplarning haqiqat ekanligini anglay oladi.

Yozuvchi va uning asarlarini uyg'un holda tadqiq etadigan biografik "metod ijodkor biografiyasidan faqat axborot sifatida foydalanmaydi, balki bunda ijodkor biografiyasi bir butun tizim o'laroq ijod mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu shunday tizimki, ichki sturukturasi jihatidan ko'plab mukkammal tizimchalarni o'zida mujassam etadi. Shuningdek, ijodkor hayoti va faoliyatini atroficha qamrab olishga qaratiladi"¹.

Yozuvchi N.Norqobilov asarlarining dunyoga kelishida biografik omillarning o'rni katta. Bu haqda adibning o'zi ko'p o'rinlarda yozgan. Shuningdek, yozuvchi uzoq yillar O'zbekiston teleradiokompaniyasida jurnalist sifatida faoliyat olib borgan. Uning muallifligidagi "Ikki daryo oralig'i" ko'rsatuvi nafaqat o'lkamizning tabiati, hayvonot va nabotat olami, balki qadimiy tarixga ega qadamjolari haqida edi. Adibning "Amir Temur izidan" (2016), "Tamaddun izlari" (2019) nomli kitoblari ana shunday yurtimiz bo'ylab olib borilgan ekspeditsiyalari haqida ocherklardan iborat. Ushbu ocherklarda yozuvchi Amir Temur g'orlaridan tortib, Nurota tog'lari va boshqa qadim tarixga ega joylar haqida hikoya qiladi. Yurtimizning uzoq o'tmishidan so'z ochadigan, sirli tarixni o'rganishga bo'lgan qiziqish uning asarlarida ham o'z aksini ko'rsatishi tabiiy edi. Bunga misol qilib adibning "*Yakkasuv*", "*Qorovultepa*" kabi hikoyalarini olish mumkin. Yozuvchi ushbu asarlarida qahramonlarining xarakter xususiyatlarini ochish, qalb kechinmalarini tasvirlash bilan parallel ravishda ularda qadim tarixga, ajdodlarga muhabbatning paydo bo'lishi, yurtning o'tmishi, sirli go'shalari haqida mahorat bilan yozadi. "*Yakkasuv*" hikoyasi qahramoni *Mirza*, jo'ralari va qo'shni qishloq yigitlari o'rtasida talash bo'layotgan Yakkasuv shunchaki bir dam oladigan joy emas, aslida tarixdan xabar beradigan ziyoratgoh ekanligini tog'asidan eshitadi. Hikoyada biz sodda, jaydari yigitchaning o'zi kutmagan holda anglab yetgan o'tmishning sirli sinoatlari haqidagi ruhiy kechinmalari tasvirini ko'ramiz.

¹ Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилава. – Т.: "Фан", 2006. – Б.14.

Xullas, yozuvchining xarakteri, hayoti, tug'ma iste'dodi individualligini ko'rsatuvchi belgi. Bunga N.Norqobilov ijodi misol bo'la oladi.

Adib asarlarining qahramonlari atrofdagi odamlarni, jamiyatni kuzatadi. Bu kuzatish orqali muayyan muhit yoki jamiyatning, umuman olganda yozuvchi nuqtai nazarida, insoniyatning turli xatti-harakati, qilmishi, illatlari, razilliklari, ahloqiy-ma'naviy qiyofasi ochib beriladi.

Albatta, yozuvchi bularni o'ziga xos obrazlar dunyosi orqali ifoda etadi. Ayni obrazlarning xilma-xilligi yozuvchi nasrining o'ziga xos tomonidir. Adib yaratgan hikoyalarning obrazlar ko'lami insondan tortib hayvonot va hatto nabotot dunyosini ham qamrab oladi. Yozuvchi xoh jonivor bo'lsin, xoh daraxt har bir qahramoni, personaji nigohi orqali insonni kuzatadi va taftish qiladi.

Yozuvchi hikoyalarining obrazlar olami shartli tasnif qilinsa, birinchidan, hikoya qahramoni sifatida inson va uning nigohi markazda turishini ko'ramiz. Bunday obrazlarga: *bola va o'smir yigitchalar, chollar, ijodkorlar, ayollar* obrazlarini (*yigirmadan ortiq hikoyalar*) aytish mumkin.

Ikkinchidan, qahramon sifatida *it, bo'ri, dala sichqoni, yumronqoziq* obrazi olinadi va hayot voqeligi ular nigohi oraqali kuzatiladi. Masalan: it ("Qizcha"), dala sichqoni (Do'ngkala), yumronqoziq (Yozning birinchi kuni),

Uchinchi guruhga esa *gul, buloq, keksa tut, boboterakni* olamiz: gul ("Yetim qolgan gullar"); buloq ("Buloq"); daraxt ("Keksa tut", "Yong'in") kabi obrazlar.

Bolalar obrazini tasvirlashda adib ijodining individual jihatlari yorqin ko'zga tashlanadi. Adib hikoyalarida bolalar obrazini tasvirlashning bir qancha o'ziga xosliklari bor. Bola obrazini yaratishda adib ba'zi hikoyalarida bolalarning yetimligiga urg'u bersa, boshqa hikoyalarida ota-ona tomonidan farzand sifatida unutilgan bolalarni tasvirlaydi. *"Erkak", "Chorraha", "Xesh", "Yangi ertak"* hikoyalarida biz aytgan jihat, ya'ni yetim bolalarning o'ziga xos tasvirini ko'ramiz. *"Zangori ko'l", "Kitob", "Sut sotuvchi bola", "Qizcha"* hikoyalarida esa bolaligini unutgan bolalar tasvirlanib, ularga qarshi ota-onalar obrazi qo'yiladi. Misol sifatida *"Kitob"* hikoyasini ko'ramiz.

*"Bola aniq his qildi, hozir uning sevimli Tom Soyri ham, ulkan havo shari ham, Sahroi Kabir... umuman, o'zini butkul sehrlab qo'ygan g'aroyib olam otasining qo'lida burdalanib, tandirga tushadi."*¹.

"Judolik quvonchi", "Mung" va boshqa hikoyalarida adib chol obrazini mohirona tasvirlaydi. Bu kabi obrazlarni yozuvchi qanday yaratadi, qaysi jihatlariga e'tibor qaratadi? Kishilar nazaridan chetda qolgan, unutilgan chollarning ichki dunyosi, ularning qayg'u alamlari bilan birga adib hikoyalarida o'z aksini topadi.

¹ Норқобиллов Н. Унутилган қўшиқ "Ёш гвардия" 1990 Б. 53.

“...Yozuvchi itlar va bo‘rilar munosabati orqali odamlarni saralaydi, ayrim masalalarda insoniyatni ulardan o‘rnak olishga undaydi. “Dashtu dalalarda” romanining qahramoni Eshqul polvon, ehtimol, “yashashni, temtinishni odamlardan emas, jonivorlardan o‘rganish kerak deganda, mana shu holatlarni ko‘zda tutgandir”. Shu jihatdan Nodir cholning vafodor iti Oqquyruq obrazi ibratlidir. Bir xum tilla xazinaga ega bo‘lsa-da, uni na o‘ziga, na bolalariga ravo ko‘rmay yer ostiga ko‘mib qo‘ygan Nodir chol mehr-oqibatni o‘g‘il-qizlaridan, yor-do‘stlaridan, qarindosh-urug‘idan emas, aynan ana shu ko‘rimsizgina iti — til-zabonsiz Oqquyruqdan ko‘rdi. Chol qo‘y galasini haydab qirga otlana ekan, Oqquyruq ularning yo‘lini to‘sib, “ochiq eshikdan tashqariga intilayotgan suruvning harakatiga oshkora monelik” qiladi. U xo‘jayinining o‘limini oldindan sezgandi. Shuning uchun kun bo‘yi “Oqquyruq mung va xavotir to‘la nigohini undan uzmay, tevaragida aylanadi”, dumini bezovta likillatib, cholning ko‘zlariga jonsarak tikiladi. Yurak xuruji tufayli jon bergan Nodir cholning tepasida uch kun poylab, uvillaganicha odamlarni chaqiradi. Itning ovozi bo‘rilarning uvlashidan ajrata olgan Erali chavandozning taklifi bilan jo‘rasining jasadi topiladi¹”. Adabiyotshunos olim Y.Solijon adib qissalarini kuzatib, yuqoridagi xulosalarni aytadi. Yozuvchining “Mung” hikoyasidan olingan parchalarda ham qissalaridagi kabi holatlarni ko‘ramiz. *“Shundan keyin chol o‘ziga keladi. Ha, degan ma’noda itiga qaraydi. Bunga javoban it bot g‘ingshiydi. “Ketdi, – deydi chol xirqirab. – Arvohdayin kunimni xiralatib, xunuklatib ketdi.” It ko‘zlarini javdiratib, ingillaydi².*

It mungli nolaga toqat qilolmay, eshik va deraza o‘rtasida zir yugurarkan, oxiri ko‘mak istab, o‘rik tagida mudrayotgan eshak yoniga bord³.

Chol oqshomlari chordana qurib o‘tirishni xush ko‘radigan joyga cho‘nqayib, go‘yo egasini qo‘shig‘ini davom ettirishga ahd qilganday, tumshug‘ini ko‘kka cho‘zgancha, hazin va mungli ovozda kuylashga tushdi.

U tuni bilan uvlab chiqd⁴.”

Adib hikoyalariga xos bo‘lgan yana bir xususiyat har bir hikoyani tugundan boshlanishida. Bu esa yozuvchining poetik individualligini ko‘rsatadi. *“Chol, odamlarning ta‘biri bilan aytganda, haftada uch-to‘rt bor ayniyd⁵”,* – deb boshlanadi: “Mung” hikoyasi. Hikoyani 5 qismga bo‘lish mumkin. Har bir qism o‘ziga xos tugundan boshlanadi va yechimiga ega.

Tugun

Chol, odamlarning ta‘biri bilan aytganda, haftada uch-to‘rt bor ayniydi

Yechim

Odamlar uchun u unutilgan buyumdek bir gap, uni chiqsagina eslashadi, qolgan payt ishlari ham yo‘q

¹ Солижонов Й. Жозиба сеҳри. Ёшлик журнали 2010. Б.9.

² Норқобилов Н. “Танланган асарлар” I жинд. 148-бет.

³ Ўша манба Б.160.

⁴ Ўша манба Б.161.

⁵ Ўша манба Б.146.

U umri bino bo'lib, ajalni sel timsolida ko'rmagan edi.

Ko'pchilkka kulfat keltirgan ofat umumiy bo'lsa-da, qayg'u baribir bo'lak edi. Suyganidan judo bo'lgan er o'shanda aqlidan ayrilay degan.

Agar u to'satdan hayotiga kirib kelmaganida, il g'amgin nolalar bilan qolgan umrini tinchgina adoqlagan bo'lardi.

Ammo o'zini aldayotganligini ichdan his qilib turarkan, etib turarkan, bu hovliga kirganiga pushaymon edi, shartta iziga qayrilib ketgisi keldi. Biroq endi buning iloji yo'q edi.

U juvonni emas, uning Xayrinisoga o'xshash ruxsoriga oshiq bo'lib qolgandi.

Ammo hamma iltijolari zoe ketgan, juvonning lutfida Xayrinisoga yaqinlik bor edi.

U o'zi sezmaganda holda juvon uchun yashay boshladi

Odamlar cholning o'limidan tongda ogoh bo'ldilar. Cholning o'ng panjasida ko'ylak parchasi, chehrasida esa go'daklarga xos ma'sum tabassum qotib qolgandi.

“U umri bino bo'lib, ajalni sel timsolida ko'rmagan edi.” – deb boshlanadigan qismi alohida yaxlid hikoya bo'la oladi. Bu qismda kutilmaganda selning kelishi va chol bilan Xayrinisoni sel oqizib ketishi tasvirlanadi.

Bola yoki chol singari qahramonlar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmaydigandek ko'rinsa-da, adib ular nigohi orqali hayot voqeligini teran kuzatadi. Ayni shunday ijtimoiy hayot voqeligini kuzatish vazifasini yozuvchi *it, daraxt, yumronqoziq* obrazlariga mohirlik bilan yuklaydiki, o'quvchi ko'z o'ngida real turmush voqealari gavdalanadi. Ushbu obrazlarning o'ziga xos nigohi orqali yozuvchi insonlarni kuzatadi. Bu fikrning isbotini *“Qizcha”* hikoyasi misolida oladigan bo'lsak, hikoyada ikki muhim nigoh borligi ko'rinadi. Biri qizcha nigohi bo'lsa, ikkinchisi *it* nigohi. Hikoyada muallif oddiy, kundalik turmushda ro'y beradigan oilaviy hayotni, ijtimoiy turmush voqeligini tasvirlagan bo'lsa-da, bu voqelikka yangicha uslub va yechim bilan yondashganligi ko'zga tashlanadi. Hikoyada bola nigohi orqali ota va onaning xarakteri, oila hayoti kuzatilsa, muallif uslubiga xos bo'lgan yana bir muhim jihat ko'zga tashlanadi. Bu ota-ona bilan birga qizchaning ayanchli holatini kuzatayotgan *it* nigohi. Qizcha har kuni uyida bo'ladigan janjaldan qochib yomg'irli kunda *it*ning inidan joy topadi.

“Uydagi janjal ancha kech tugadi. Bu paytda yomg'ir tinib, hovli sahnida katta xalqob yuzida so'nggi tomchilar doiracha yasar, nam havoda tutun isi anqirdi. Qizcha esa janjal bosilganidan bexabar, itning pinjida shirin tushlar ko'rib yotardi. Jonivor bo'lsa, qimirlashdan hayiqib, qizoloqning yuzidan ko'z uzmagan ko'yi, dam-badam uning yuzi va qo'lini astagina yalab-yalab qo'yardi¹”.

Hikoyada *it* nigohi juda muhim vazifa bajaradi. U oilaning asl holatini to'la ochib beradi. Tongda qizcha *it* inidan topilgandan keyin ham *it* uni ota-onasiga bergisi kelmaydi.

“Bu vaqtda tor inda o'zi istagan osoyishtalikni topgan qizaloq to'polondan bexabar tinchgina uxlab yotardi. Faqat itgina bezovta edi. Qizaloqni bag'ridan tortib

¹ Норқобилов Н. Бўрон қўпган кун. Т.: Шарқ-2007. Б.284.

*olishlarini payqab, notinchlansa-da, lekin uni qo'zg'ab yuborishdan cho'chib, qimirlamaslikka urinardi. U g'ujanak bo'lib yotgan qizaloqning muzdek yanog'ini issiq tili bilan ohista yalakan, iniga qiziqsinib mo'ralagan sharpani sezib, g'azabnok irilladi. Biroq kimsa qizchani ilg'ashga ulgurgandi*¹.

Aytish kerakki, bu kuzatuvchanlik nigohi ba'zan, qahramonga, ba'zan roviyga o'tadi va aytilganidek, asar personajlarini kuzatadi. Bu nigohning roviyga o'tishida ham o'ziga xoslik bor. Roviynigohi ko'p hollarda qahramonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini emas, aksincha, unda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatadi. Ya'niki, roviynigohi orqali kuzatilgan qahramonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi uni o'rab turgan muhitdagi insonlarnikidan ancha baland bo'ladi. Bu holatni biz adibning boshqa hikoyalarida muallim, rassom, shoir obrazlari orqali ham ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asosan qahramonlarning ruhiyatida, ba'zan e'tiqodida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatadi. "Tugatilmagan surat", "Quvonchli kun" hikoyalarining qahramonlari muhit bilan konfliktga kirishadi. Ular ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ayni shu o'zgarishlar asnosida ularda alam, nafrat kabi o'zlari kutmagan his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Bunda yozuvchi biqiq, o'zgarmas muhitni yoki odamlarni sabab qilib ko'rsatadi. Ayni shu muhitda qahramon insoniylik qiyofasidan, toza hislaridan butunlay mahrum bo'ladi. Ba'zi qahramonlar butunlay shu muhitda qolib ketadi, ba'zilari esa muhitning chin ma'nodagi qurboniga aylanadi. Boshqa bir tomondan esa qahramonlar muhit yoki personaj ta'sirida holati, ruhiyatida jiddiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi ularning chin insonga aylanishiga sabab bo'ladi. Bu jihat adibning ko'plab asarlariga xos xususiyat hisoblanadi.

"Buloq" va "Keksa tut" hikoyalarida qo'shnilar, "Yong'in"da esa butun qishloq qahramon nigohi orqali ko'rinadi. Bu kuzatish insonning butun illatlarini ochib berishga xizmat qilishi yozuvchining o'ziga xos uslubi.

"Do'ngkalla" hikoyasida dala sichqoni Do'ngkallaning kuzatishlari falsafiylik kasb etsa, yumronqoziqlar sardori Tirtiqlarning nigohi orqali ulfatlarni, ayniqsa, Botirning qiyofasini ochib beradi. Do'ngkallaning bolaga ta'siri katta, bolaning esa bobosiga ta'siri bor. Qay bir jihatdan Do'ngkalla bola orqali boboni tarbiya qiladi.

"– Bundan keyin u sizning qovun-tarvuzingizga tegmaydi, – dedi bola xaltani chayla kunjagiga joylashtirib.

– Dorilanganmi?

– Yo'q.

– Unda qanaqasiga?..

– Men... u bilan kelishib oldim.

Normat qora, hazil qilayaptimi bu, degan ma'noda u tomon o'girildi. Yo'q, kamgap nevara, odatdagidek, juda jiddiy edi. U saldan so'ng cho'ntagiga bir chimdim don

¹ Норқобилов Н. Бўрон қўпган кун. Т.: Шарқ-2007. Б.285.

solgancha, Do'ngkalla hududi tomon jildi. Normat qora esa bolakayning izidan hayron termulib qoldi¹."

Adibning ba'zi hikoyalarida qahramonning personajlarga ta'siri ko'zga tashlanadi. Bu ta'sir ma'lum ma'noda qahramon orqali ma'nan qashshoq personajlarni tarbiya qilish bilan birga o'z navbatida o'quvchiga ham yuqadi. Ayrim hikoyalar yakunida qahramonning muayyan personajga ta'sir o'tkazib uni tarbiyalashi muallifning o'ziga xos uslubiga aylangan.

Adibning *"Yozning birinchi kuni"* hikoyasini o'quvchiga Sharqning hikoyat ichida hikoyatlarni jo qilgan asarlarini yodga oladi. Bunday asarlarga misol qilib, hikoyat ichida hikoyat shaklida qurilgan boblarni va ko'plab murakkab syujet chiziqlarini o'zida jamlagan *"Kalila va Dimna"* asarini aytish mumkin. *"Kalila va Dimna"* bilan *"Ming bir kecha"* asarlari kompozitsion qurilishi jihatidan... bir qarashda novella (hikoyat)lar to'plamiga o'xshab tuyulsa ham, turkum yoki to'plamga xos mavzu xilma-xilligi, mazmun tarqoqligi, fabulaviy noizchilikdan yiroq, bir butun kompozitsiyaga ega.²

"Yozning birinchi kuni" hikoyasi syujeti parallel ravishda kechadi. Hikoyani qurilishi jihatidan shartli nom ostida uchga bo'lish mumkin.

- a) *Yumronqoziqlar to'dasi sardori – Tirtiq;*
- b) *Ulfatlar;*
- c) *Ikki eshak* haqidagi qism.

Yozuvchi jonivorlar haqida *"Uloqcha"*, *"Qashqa"*, *"O'g'ri"* hikoyalari, *"Oqbo'yin"*, *"Paxmoq"*, *"Ajal chorlagan kun"* qissalari yozgan bo'lib, shundan kelib chiqib hikoyaning *Ikki eshak* qismini yaxlit hikoya deb olish mumkin.

Hikoyada go'yo sahnani kuzatayotgan tomoshabin, sahnani ham tomoshabinni ham ziyraklik bilan kuzatayotgan rejissiyor nigohi kabi muayyan nuqtada tutashadigan, jamlanadigan bir nechta nigohni kuzatish mumkin. Bularga mashina zarbidan yiqilgan juftini yonida turgan eshak, eshaklarni kuzatayotgan ulfatlar, har ikki voqelikdan tashqari, atrofni kuzatayotgan Tirtiq, asar yakunida faollashadigan Bo'rivoy va bularning hammasini jamlagan muallif nigohini aytish mumkin.

Hikoyada real voqelikni ifodalashda odamlar va jonivorlar nigohi parallel qo'yiladiki, bu ham yozuvchining individualligini bildiradi. Bu esa ko'pincha falsafiylikka ega bo'ladi. Yozuvchi nuqtai nazariga ko'ra odamlarning qilmishlari hayvondan tuban, vahshiyroq degan ma'noni beradi. Fojea yuz berganda unga odam va jonivorning munosabatini quyidagi parchadan ko'rish mumkin.

"Shunga ko'ra, yelgir ulov zarbidan koptokday dumalab tushgan qora moda yeshakning ayanchli holatidan emas, voqeaga yigitlar bo'g'zidan beixtiyor tarzda, bir paytda ko'chgan kuchli "oh"dan yuragi qinidan chiqib ketgandi. U qo'rquvdan

¹ Норқобилов Н. Четдаги одам.Т.: Чўлпон, -2016. Б.183.

² Жўрақулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. Монография. Т.: "Тамаддун", 2021, Б.42-43.

iniga sho'ng'ir ekan, sho'ng'ish asnosida, tabiiy yoriqqa ko'ra, jamoadoshlarini ham qochishga undab ulgurgan edi. Ma'lum muddat ini to'rida kuymalanib, o'zini o'nglab olgach, quruq va salqin bu boshpanasida har qanday xavf-xatardan xoli ekanligiga qattiq ishonch hosil qilganday bir dam huq-huqlab turgach yakunida ketma-ket yengilgina chiyillashni unutmagan holda tishga yo'nalganda, qirqdan hatlagan bo'lsa-da, haligacha qaynab quyilmagan, bu yetmaganidek, kayfi taroq kezlari ham rulga o'tirishdan qaytmaydigan Sodiq o'pka boshqaruvidagi temir ulov sayxonlik g'arbidagi qiyalikka tirmashib, jar chetidagi yassi do'nglik ortida ko'zdan g'oyib bo'lgan, yigitlar go'yo hech qanday noxush hodisa ro'y bermagandek, o'sha-o'sha chodir bilan ovora edilar. Qora eshakning jonsiz jasadi tepasida esa yag'iri oqish tuklar bilan "bezalgan" kulbet hangi, erkalanmay turaqol endi, deganday uzun quloqlarini goh dikkaytirib, goh shalpaytirib turar edi¹."

Yuqoridagi epizod kabi hikoyaning boshqa qismlarini ham shunday qo'shma gaplardan iborat bo'lgan bayon uslubi birlashtirib tutib turadi.

Xullas Normurod Norqobilov hikoyalarida individual voqelikni tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, bolalar obrazini tasvirlashda ko'p hollarda ularni ota-onalari, atrofidagi odamlar bilan qarshi qo'yadi. Yuqorida sanalgan asarlardan tashqari "Kapalak", "Baliq ovi" hikoyalarida ayni holni ko'rish mumkin. Shuningdek, adib bolalar obrazini tasvirlashda ularning yetimligiga e'tibor qaratsa, chol obrazida esa ularni yolg'izlikdagi izzatlariga urg'u beradi. Chol va bola obrazlariga qo'shilib, tabiatdagi biron bir detal yoki unurning obraz darajasiga chiqishi ham yozuvchi hikoyalariga xos jihat.

Jonivorlar obrazini yaratishda yozuvchining individualgi voqelikni insonlar va hayvonlar nigohi bilan parallel tarzda ifoda etishda ko'rinadi.

Adabiyotlar

Dovurova Sh. Adabiy jarayon va yozuvchining ijodiy individualligi. Fil.fan. nom. Diss...T.: 2004. B.5.

Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: "Fan", 2006. – B.14.

Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi. Monografiya. T.: "Tamaddun", 2021, B.42-43.

Norqobilov N. "Yoshlik" jurnali. 2010 yil 7-son.

Norqobilov N. Unutilgan qo'shiq "Yosh gvardiya" 1990 B. 53.

Osha. "Ijod ichki kuchlarni ozod qilish" 2021 yil 8-son.

Solijonov Y. Joziba sehri. Yoshlik jurnali 2010. B.9.

¹ Норқобилов Н. "Танланган асарлар" I жилд. Б.386.

O'zbek rivoyatlarida sharqona ruhning ifodalanishi

Hasan Hamzayev¹

Abstrakt.

Sharq ma'rifatchiligida, badiiy tafakkurida rivoyatlar, xalq hikmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Adabiyotshunoslarning rivoyatga bergan ta'riflari, janr xususiyatlar ham ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, rivoyatlar, hikoyatlar, xalq hikmatlaridagi sharqona ruh ifodasi tadqiq qilingan. Mana shu sharqona ruhni tarjimada berilishi ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *rivoyat, hikoyat, roviy, ruh, Sharq, adabiy janr, tarjima.*

Kirish.

Sharq xalqlari azaldan o'zining hayotga nisbatan falsafiy qarashlari bilan g'arb madaniyatidan farqlanib kelgan. Dunyoqarashlarning xilma-xilligi esa asosan, xalq og'zaki ijodiyoti orqali namoyon bo'ladi. Atrofda sodir bo'layotgan voqealarni har bir xalq o'zining milliy xususiyatlari hamda qadriyatlaridan kelib chiqqan holda qabul qiladi va tafakkuri orqali tahlil etib, undan o'ziga xos xulosa chiqaradi. Natijada voqealar rivoyatlarga aylanib, avlodlarga ma'naviy me'ros sifatida yetib boradi. O'zbek xalqining donishmandligi ham ana shunda, ya'ni hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan tegishli xulosa chiqaribgina qolmasdan, ularni kelajak avlodga tarixiy saboq sifatida asrab avaylab kelinadi.

Islomning mohiyati haqida gapirilar ekan, "Din bu – nasihat", degan Muhammad alayhissalom: "Hikmatli so'z mo'min kishining yo'qotib qo'ygan narsasidir, uni qayerdan topsa, o'zlashtirib olishga haqlidir", – deb lutf etadilar [Очилов 2013, 3]. Sharq adabiyoti, xususan, o'zbek adabiyotida hikmatli so'zlar, rivoyat hamda hikoyatlar didaktik asarlarning bosh manbai sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi va shoirlar ulardan so'z isboti sifatida, ya'ni voqealardan to'g'ri xulosa yasash maqsadi foydalanib kelishgan. Shu tariqa xalq og'zaki ijodiyotiga mansub rivoyat va ertaklar avloddan avlodga yetib kelmoqda.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotining yorqin namunalaridan biri rivoyatlardir. Ergash Ochilov sharq rivoyatlarini o'rganar ekan, ularning adabiyotdagi ahamiyati xususida shunday deydi: "Asrlar sinovidan o'tib, hozirgacha davom etib kelayotgan bu an'ananing umrboqiyiligini ko'rsatadi. Aytaylik, mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani asosida manqurt haqidagi qadimiy rivoyat yotsa, Asqad Muxtorning "Chinor" asarida rivoyatlar asosiy voqealarni ochuvchi kalit bo'lib xizmat qilgan. Abdulla Oripovning "Hakim va ajal" dostoni tabobat ilmining sultoni Abu Ali Ibn Sino

¹ Hamzayev Hasan Rajabboyech – Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: hasan-hamzayev@qarshidu.uz

ORCID ID: 0000-0001-7575-6089

Iqtibos uchun: Hamzayev H.R. 2023. "O'zbek rivoyatlarida sharqona ruhning ifodalanishi". O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2): 22-30.

to'g'risidagi rivoyatlar asosiga qurilgan bo'lsa, Erkin Vohidovning ulug' hind shoiri Nazrul Islomning fojiali taqdiriga bag'ishlangan "Ruhlar isyoni" dostoni syujeti chuqur ma'noli hayotiy rivoyatlar orqali shakllantirilgan. Aslida o'zbek adabiyotida qatiga biror-bir rivoyat singdirilmagan asarni topish qiyin." [Очилов 2013, 6].

Rivoyat inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etar ekan, uning adabiy janr sifatidagi xususiyatlarini bilish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Rivoyat arabcha so'z bo'lib, hikoya qilish, biror narsani naql etish ma'nosini bildirib, "voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya, folklor janri. Hajmi qisqa – ikki yoki uch epizoddan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda, oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan – og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi." [ЎзМЭ 2004, 323].

Demak, rivoyatlar asosan o'tmish voqealarini o'zida aks ettirib, xalqimizga xos fe'l-atvor, turmush tarzi, qadriyat hamda an'analarni turli ibratli voqealar yordamida yoritib beradi. Umumiy qilib aytganda, rivoyatlarda xalq milliy ruhi namoyon bo'ladi, desak mo'bolag'a bo'lmaydi. Mashhur yunon olimi Demokrit aytganidek, "rivoyatlarni o'qish natijasida uch qobiliyat hosil bo'ladi: *eng to'g'ri xulosani chiqarish, nuqsonsiz gapirish va nima qilish kerakligini aniq bilish*". Shuning uchun ham Luqmoni hakim taomdan och bo'lsang ham, hikmatdan to'q bo'l, degan ekan. [Очилов 2013, 6]. Kattaga hurmat, kichikka izzat, muhtojlarga yordam berish, ig'vogarni to'g'ri yo'lga boshlash va doimo ezgu niyatda bo'lishlik kabi bir qancha ijobiy xislatlarni o'zida aks ettiradi. Qadimda rivoyat so'zlovchilar *roviylar* deb atalgan. Ular jamoat joylarida omma uchun namuna bo'la oladigan, xalq ongiga ezgulik urug'ini sochadigan hamda ibrat maktabini o'tovchi rivoyatlarni so'zlab berishgan. Shuningdek, rivoyatlarning o'ziga xos boshlanish qoidalari, "rivoyat qiladilarki", "andoq rivoyat qilibdurlarkim" kabi qolip jumalarning qo'llanilishi, ayniqsa, ulardagi qaysi davrga tegishli voqea ekanligini aniq ko'rsatib berishdek, alohida xususiyatlar haqida buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy ham o'z asarlarida ma'lumotlar berib o'tgan. [Беруний 1968, 66].

Ba'zan hayotda shunday insonlar uchraydiki, ularga tutgan yo'llari noto'g'ri ekanligini har qancha ta'kidalasangizda, fikringizni tushunishlari qiyin bo'ladi. Qisqa voqelikdan iborat rivoyatlar shu kabi holatlarda noo'rin harakatlarimiz nima bilan tugashi mumkinligini yaqqol namoyon etadi, shuning uchun ham rivoyatlar adabiy janrlar ichida o'zining xalqchilligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotda asarlarning milliy ko'rinishiga uning bosh mezonini sifatida qaraladi. Adabiyotshunos olim E.Xudoyberdiyev nasriy hamda nazmiy asarlardagi xalqchillik xususiyatlarini o'rganib, bu haqidagi yozuvchi va shoirlarning fikrlariga tayangan holda quyidagi xulosalarni keltirib o'tadi: "Odamlar *xalqchillik* tushunchasini mehnatkashlar ommasining qarashlari bilan bog'liq holda olib qaraganlar. Ular xalqchillikni eskicha talqin qilishni,

ya'ni muayyan milliatning urf-odatları, marosimları, kiyimlarini ko'rsatishdangina iborat deb tushunishni inkor etib, "haqiqiy milliylik sarafanini tasvirlashdan iborat emas, balki *xalq ruhining* aks ettirilishidadir", degan juda muhim fikrga keldilar. Eng ajoyib adabiy asarlarda xalq ongi bayon etiladi, *xalq ruhi* va hayoti yorqin, to'g'ri aks ettiriladi" [Худойбердиев 2008, 48].

Rivoyatlar ham ana shunday, xalq ruhini o'zida yorqin namoyon eta olgan badiiy janrlardan biridir. Bu janr to'rtinchi adabiy tur hisoblangan (professor B.Sarimsoqov ta'kidi bilan) paremik tur tarkibida bo'ladi. Ularda xalq hikmati, podshohlarning mardligiyu, dehqonlarning donoligi ajoyib satrlarda so'zlab beriladi, e'tiborli jihati shundaki, biror voqeaning qisqa va lo'nda bayoni bir olam ma'no kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodiyotida milliy ruhning aks ettirilishiga oid tadqiqotlar va nazariy ma'lumotlarni chet el tarjimashunos olimlarining ilmiy risolalarida ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, Iveta Todorova-Pirgovaning "**Langue et esprit national: mythe, folklore, identité**" nomli ilmiy risolasiga binoan, xalq og'zaki ijodiyotidagi milliy ruh tushunchasiga ikki xil tus berish mumkin:

a) *ideologik;*

b) *akademik*

Har ikkala tushuncha mohiyatiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi, ya'ni muallifning milliylikni qaysi maqsadni ko'zlagan holda tatbiq etishi ushbu milliy ruh tushunchasiga bo'lgan munosabatni belgilab beradi. Ideologik yondashuv faqatgina bir millat manfaatini ko'zlagan holda, uning qadriyatlarini ulug'lash va o'z millatini yuksaklarga ko'tarish, milliy ruh tushunchasidan g'oya sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Akademik yondashuv esa milliy ruhiyat jumlasiga ilmiy jihatdan yondashgan holda, xalqlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ularning madaniyatini boshqa millatlarga tanishtirish orqali tushunmovchiliklarning oldini olishdan iborat [Todorova-Pirgova 2001]. I.Todorova-Pirgovaning tadqiqotlariga ko'ra, "milliy ruh" atamasini dastlab nemis adiblari Gerder, Gyote hamda Gumboldtlar o'z asarlarida hamda ilmiy risolalarida qo'llaganlar. Olimlar ushbu risolalarida milliy ruh tushunchasiga xalqning milliy qalbi, milliy xarakteri deya tavsif berib o'tishgan. Ma'lum bir millatning qalbi va donishmandligi, milliy ruhi aynan tilda aks etadi, deya ta'kidlashadi nemis olimlari. Xalqqa umumiy milliylik mavjud ekan, uning og'zaki ijodiyotida ham xuddi shu xususiyat o'z ifodasini topadi [Todorova-Pirgova 2001]. Shuningdek, fransuz tadqiqotchisi Daniel Drua ham xalq og'zaki ijodiyotiga oid masal va matallarni o'rganar ekan, ulardagi fe'l-atvor, vaziyatlarga yondashuv hamda fikr-mulohazalarning turfa xilligi milliy ruhiyatning asl mohiyatidir [Droixhe 2014, 166-175], deya e'tirof etadi.

Rivoyatlar uzoq yillar mobaynida shakllanib, tarix sinovlarida sayqallanib, berilajak pand-nasihat o'z isbotini topgach, keng ommaga taqdim etiladi. Shuning uchun ham bunday ijodiy namunalar aynan xalq yuragidan chiqqan so'zlar ifodasi bo'lib, ularda haqiqiy millat ruhi namoyon bo'ladi. O'zbek tarjimashunos olimlari tadqiqotlarida ham, rivoyat va ertak kabi bir

qancha adabiy janrlarning o'ziga xos milliy jihatlari va ularning tarjimasiga alohida ahamiyat berilgan.

Milliy xususiyatli til vositalarini tahlil etish jarayonida Q.Musayev ularning kelib chiqish manbasi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "Muayyan xalq afsonalari, e'tiqod va *rivoyatlari* asosida vujudga kelgan birliklar *o'zlariga xos shakllari* bilan mazkur xalq vakillariga tushunarli bo'lsa, ular tarjima tilida ushbu iboralarga xos leksik tartibning saqlanishining nome'yoriy, bemazmun birikmalarining hosil bo'lishiga, demak pragmatik adekvatlik yaralmay qolishiga olib keladi." [Mycaev 2005, 299] Mazkur izoh orqali tarjimashunos olim xalqning azaliy qadriyatlariga xos jummalarning tarjima vositasida o'z shaklini yo'qotib borayotganligi tanqid ostiga olinmoqda. Rivoyatlar juda qisqa bo'ladi, biroq uning asl qimmati ham ana shunda. Insoniyatdagi vaqt va sabr chegaralarini hisobga oladigan bo'lsak, ma'naviy ozuqaning eng qulay yo'li, bu albatta rivoyat tinglashdir. Turli mavzularda berilgan rivoyatlarni o'qiganda shunga guvoh bo'ldikki, voqealar qisqa satrlarda bayon etilib, uning xulosasi o'quvchining o'ziga qoldiriladi. Bu narsa kitobxonni o'ylashga, fikrlashga, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni mustaqil ravishda sharhlay olishga o'rgatadi. Shuningdek, rivoyatlardagi shu kabi qisqa nutqlar zahirida butun bir xalqning ruhiyati yotadi. N.A.Kun o'zining "Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari" kitobida rivoyatlarni umriboqiy asarlar deya ta'riflab, bunday xalq ijodiyotining vujudga kelishi insonning o'z-o'zini bilishi uchun qo'yilgan ilk qadamdir deydi [Kyn 2005, 3]. Yunon afsonalarida odamlarning jangovorligi, xavf-xatarga ishtiyoqmandligi, xudolarni xuddi insonlardek tasvirlanishi kabi xususiyatlar shu xalqning milliy jihatlari ko'rsatib bergan.

Bugungi kunda o'zbek adabiyotiga, xususan, xalq og'zaki ijodiyoti namunalari bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbek adabiyotining eng sara namunalari fransuz tiliga tarjima qilinib kelinmoqda. Ayniqsa o'zbekona milliy ruh aks etgan rivoyat va ertaklardagi milliy an'analarni saqlashga katta e'tibor qaratilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'plab o'zbek yozuvchilari o'z asarlari mazmunini ochib berishda rivoyatlardan unumli foydalanishgan.

Buyuk ustozlarning an'anasini davom ettirgan holda filologiya fanlari nomzodi Ergash Ochilov o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti va buyuk arboblarning asarlaridan eng sara namunalarni jamlab, "Sharq hikoyati va rivoyatlari" nomi ostidagi to'plamni tuzib, uni kitobxonlarga taqdim etdi. Mazkur asar Jahongir Sanaqulov va Pravina Nallatambiylar hamkorligida tarjima qilinib, unda sharq og'zaki ijodiyoti va ulug' allomalar ijodidan olingan bir qancha hikoyat hamda rivoyatlar mavjud. Rivoyatlarning har birida sharqona ruh, o'zbekona milliylik qahramonlar nutqi orqali o'z aksini topgan. Asardagi milliy ruhning fransuz tilida qay darajada ifodalanganligini tahlil etishni joiz deb topdik. Zero, til – millat ko'zgusi, uning jahon adabiyotida o'z o'rnini va xususiyatini yo'qotmasligi uchun har birimiz mas'uldurmiz.

Ergash Ochilovning yuqorida ta'kidlaganimiz hikoyalar to'plami fransuz tilida "Récits ouzbeks" deya sarlavhalangan bo'lib, undagi barcha rivoyat va

hikoyatlarda milliy qadriyatlarimizga xos bo'lgan jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, "**Rahmdil inson**" rivoyatini olaylik:

Asliyatda: - *Men masjidga kelayotib, daryo bo'yida tahorat olgan edim. Namoz uchun safga turganimda yelkamda bir chumolini ko'rdim. Uning tahorat joyida menga ilashganini bilib, uyini topolmay ozor chekmasin deb, darhol uyasiga olib borib qo'ydim va bir **gunohsiz** jonivorning **uvoliga** qolishdan qutuldim. (17-b)*

Tarjimada: - *Avant d'arriver à la mosquée, j'ai fait mes ablutions au bord de la rivière. En faisant ma prière, j'ai aperçu une fourmi sur mes épaules. Comme je savais qu'elle s'accrochait à mes vêtements, je l'ai ramenée à son nid afin qu'elle retrouve sa famille ; ainsi, j'ai vite couru pour ne pas tuer un être vivant. (16-17-b)*

Bizga ma'lumki, chumoli obrazi o'zbek adabiyotida ijobiy personaj hisoblanib, uning mehnatsevarligi, birdamlikda harakat qilishi, tirishqoqligi o'zbek xalqi tomonidan juda qadrlanadi. Har bir xalqning o'ziga xos tabiatdan olingan va juda qadrli bo'lgan timsoli mavjud. Masalan, hindlarda sigirga ehtirom ko'rsatilsa, misrliklar mushukni ardoqlashishadi, shuningdek, o'zbeklarda ham chumoli mehnatsevarlik timsolidagi hasharotdir. Shuning uchun ham hikoyada ushbu hasharot "gunohsiz" bo'lib, uni o'ldirish "uvol" hisoblangan. Biroq tarjimada har ikki so'z tushurib qoldirilgan. So'nggi jumlaning so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, tarjimon, *j'ai vite couru pour ne pas tuer un être vivant*, ya'ni "*tirik jonivorni o'ldirishdan qochdim*" deya o'g'irgan. Natijada hikoyaning asosiy hikmatni ochuvchi qismi soddalashib, jo'n fikrga aylanib qolgan. "Rahmdil inson" rivoyatida gunohsiz chumoli obrazi orqali mehnatsevar, sodda va samimiy insonlar ulug'lanib, tirikchilik yo'lida olib borayotgan faoliyatimiz nechog'li muhim bo'lmasin, bu yo'lda begunoh insonlarga zarar yetkazmaslik lozimligi uqtirib kelinmoqda. Biroq rivoyatlardagi shu kabi jihatlarning tarjimon e'tiboridan chetda qolgan. Vaholanki, bunday qadriyatlar milliy ruhiyatimizning bosh bo'g'ini hisoblanib, ularga yuzaki qarash jahon adabiyotida o'zbekona tafakkur shakllanishi uchun to'siq bo'lishi mumkin.

Tarjimaning muvaffaqiyati, avvalo, tarjimon iste'dodiga aloqador bo'lsa, boshqa tarafdin, ob'ektiv shart-sharoit hisoblanmish o'girilayotgan asar bilan vatan adabiyoti orasidagi davriy va milliy "masofa", yaqin-yiroqlik, adabiy-estetik an'analar, did va tushunchalar orasidagi tafovutlar, adabiy aloqa va ta'sirning xarakteri, xalq tilining boyligi, adabiy tilning taraqqiyot bosqichi, poetik imkoniyatlar hamda kitobxon saviyasi, shunga muvofiq talab va ehtiyojlarga vobastadir [Саломов 1983, 89].

Bundan tashqari, to'plam tarjimasiga kiritilgan "**Non hurmati**" rivoyatida insondagi mehnatsevarlik ulug'lanadi. Bir burda non dasturxonga yetib kelgunga qadar nechog'li mashaqqat va mehnat bilan tayyorlanadi. Shuning uchun ham o'zbek dasturxonida barcha taomlardan avval non keltiriladi va birinchi bo'lib non ushatilib, mehmonlarga taqdim etiladi. Shu bilan birga o'tmishda urushga yo'l olgan jangchiga butun nondan bir bo'lak tishlatilib,

uning qaytib kelishi va rizqi yo'q bo'lib ketmasligi uchun qolgan non bo'lagi yigit qaytguniga qadar olib qo'yilgan. Bu ham bo'lsa xalqimizga xos milliy qadriyatlardan biridir. Mazkur rivoyat fransuz tilida "Le respect du pain" deya tarjima qilingan bo'lib, barcha gaplar so'zma-so'z o'girilgan. Biroq buyuk podshohning bir burda nonga shu qadar ehtirom ko'rsatishi sabablari milliy qadriyatlarimizdan mutlaqo bexabar boshqa bir xalq uchun qisqa so'zlarda tushuntirilishi yetarli bo'larmikan?

Tarixiy manbalarda keltirilishicha birinchi jahon urushi yillarida Yevropaning ko'plab mamlakatlarida kartoshka yordamida ocharchilikning oldi olingan, shuning uchun bugungi kunga qadar ushbu poliz mahsuloti ko'plab Yevropa mamlakatlarida qadrlanib, hatto Shvesiya, Fransiya, Germaniya, shuningdek Osiyodagi Yaponiya kabi mamlakatlarda kartoshkaga haykal o'rnatilgan [<http://erudit-menu.ru/plugins/art/art.php?0.view.29>]. Bundan tashqari qadimgi Rimda zaytun muqaddas o'simlik hisoblangan bo'lib, imperator va zodagonlar uning barglaridan yasalgan gulchambarlarni boshlariga taqib yurishgan. O'zbek xalqida ham nonga bo'lgan hurmat cheksizdir. Buning yana bir isbotini milliy ramzlarimizdan biri gerbdagi bug'doy o'rami tasvirida ko'rishimiz mumkin. Rivoyatda ushbu hurmat podshoh tomonidan amalga oshirilgani orqali nonga nisbatan o'zbek xalqining munosabati nechog'li yuksak ekanligini tasdiqlaydi. Biroq rivoyat tarjimasining so'ngida ushbu qadriyat xususidagi qisqacha ma'lumot yoki sharh keltirilganida maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi, deb o'ylaymiz. Chunki xalqimizning asosiy milliy ruhini ifodalovchi shu kabi qadriyatlar xususida chet tilida yozilgan manbalar deyarli mavjud emas. Ularni jahon xalqlariga tanishtirish hamda o'zbek xalqining boy tarixiy me'rosini dunyoga olib chiqish tarjimonlar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Ushbu rivoyatning sarlavhasi tarjimasiga to'xtaladigan bo'lsak, unda "Non hurmati" jumlasida "Le respect du pain" tarzida o'girilgan bo'lib, mazkur tarjimada *de* predlogining artikl bilan birlashib, tutash artikl hosil qilib kelishi jumlaning grammatik ma'nosini biroz shubhali qilib qo'ygan. Chunki, birinchidan, *de* predlogi fransuz tilida -ning, -da, -dan kelishik qo'shimchalarini ifodalab keladi. Biroq ushbu predlogning oziq - ovqat mahsulotlari oldida qism bildiruvchi artikl sifatida ham qo'llanishi mumkinligin yoddan chiqarmasligimiz lozim. *Ikkinchidan*, I.Delatur, D.Jeneppin, M.Leon-Dyufur va B.Tessierlar tomonidan tuzib chiqilgan "Nouvelle Grammaire du Français" kitobidagi predlogning artiklsiz qo'llanilish holatlari xususidagi qoidaga ko'ra, agar so'z ot to'ldiruvchi sifatida kelsa, bunday holatda artikl tushurib qoldiriladi. Bu o'zbek tilida so'z birikmalarida qaratqich kelishigining tushurib qoldirilishi, *uchun* ko'makchi so'zi bilan keluvchi va -lovchi qo'shimchasi orqali tuziladigan so'z birikmalariga to'g'ri keladi. Masalan: une carte d'identité - shaxsni tasdiqlovchi hujjat, une salle d'attente - kutish uchun xona yoki kutish xonasi, un arrêt d'autobus - avtobus bekati.(Shu kitob 46-b.) Uchinchidan, Fransuzcha - O'zbekcha lug'atda **respect** - hurmat so'zi kimgadir yoki nimagadir nisbatan aytiladigan bo'lsa, *pour* yoki *à* predloglari bilan kelishi aytib

o'tilgan: le respect pour les morts . (498-b.) "Non hurmati" rivoyatining qisqaligi uning sarlavhasi va mazmuni tarjimasiga yanada jiddiyroq e'tibor qaratish lozimligini talab etadi. Tarjimada grammatik xilma – xillik gaplarning ma'noviy urg'usi hamda tartibiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

"Sulton Mahmud va Beruniy" rivoyatida milliy ruhni o'zida aks ettiruvchi jihatlardan yana biri yig'inning boloxonada o'tkazilishi hamda donishmandga zarbof to'n kiydirilish sahnalaridir. Har ikkala so'z qatnashgan gaplar o'ziga xos milliy xususiyatga ega. Masalan, zarbof to'n shunchaki milliy-madaniy so'z emas, balki o'zbeklarga xos bo'lgan taqdirlash uslubidir. Har bir xalqda mukofot berish va taqdirlash turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Yevropada qirolning biror yumushini ado etgan saroy a'yoni yer-mulkdan tashqari mansabi ko'tarilib, huquq va imkoniyatlari kengaytirilgan. Aynan Markaziy Osiyo hududida esa to'n kiydirish odati chuqur hurmat va ehtirom belgisidir. Rivoyat tarjimasida **zarbof to'nning "un manteau traditionnel en fil d'or"** deb berilishi uning oddiy "yaltiroq kiyim" sifatida namoyon bo'lishiga olib kelgan. Tarjimadagi "un manteau" so'zi fransuzlarda qishki issiq kiyim ekanligi hammamizga ma'lum. Biroq o'zbek milliy an'alariga muvofiq zarbof to'n yilning har to'rt faslida eng oliy darajadagi marosimlarda kiyiladi yoki buyuk xizmatlari uchun taqdim etiladi. Shuningdek bir necha bor Prezidentimiz I.A.Karimovning yurtimizga tashrif buyurgan hurmatli mehmonlarga zarbof to'n kiydirganliklarining o'ziyoq so'zimizni nechog'li to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Saroy bog'ida bino qilingan boloxonaning yuqoridagi tavsifiga binoan, bu mahalliy bino qurilish uslublaridan ekanligini bildik. Masalan Buxoroda joylashgan Sitorai Moxi Xosa majmui ham amirning yozgi saroyi bo'lib, uning ham ikkinchi qavatda **boloxonasi** mavjud. Ushbu bino g'arbdagi ikki qavatli saroylardan tubdan farq qiladi. Tarjimada bu so'z **"le palais"**, ya'ni saroy deb berilgan. Berilgan ekvivalentni noto'g'ri deb bo'lmaydi, biroq milliylik ruhini berishda bu kabi so'zlarning ahamiyati katta. Atrofdagi manzaraning tasvirlanishi va undagi farqli jihatlarning tarjimasi badiiy asar qimmatini belgilab beradi. A.Iminov o'zining "Tarjima va leksik imkoniyatlar" maqolasida: "Badiiy tarjima san'ati bu masalaga nozik did bilan yondashishni – so'zni so'z, iborani ibora bilan emas, balki ularning ma'no va ottenkalarini ifodalashni taqozo qiladi." [Таржима санъати 264]

Har bir xalqning maqol va matallari ana shu xalqning o'ziga xos hayotiy tajribasi, donishmandligi va qadriyatlar asosini namoyon etadi. Ba'zi maqollar faqatgina ma'lum bir xalqning an'analiriga tegishli bo'lsa, boshqa maqollar tuzilishidagi xususiylikka qaramasdan, umuminsoniy qadriyatlardagi g'oyalarni ham o'zida aks ettirishi mumkin. O'zbek xalq maqollarining o'ziga xosligi ham ana shunda, ya'ni milliy maqollar orqali umuminsoniy manfaatlarni himoya qilishdir. Nabatdagi, "La valeur de la bienveillance", ya'ni "Yaxshilikning bahosi" rivoyati orqali tarjimonning o'zbek xalq hikmatli so'zlarini mahorat fransuzcha maqol ekvivalentiga o'g'irganligining guvohi bo'lamiz:

Asliyatda: - *Yomonlik ko'rmay desang, yomonlik qilma!* (25-b.)

Tarjimada: - *Ne fais pas de mal, si tu ne veux pas qu'on t'en fasse!* (24-b.)

Mazkur gaplarda tarjimon o'zbek tilidagi hikmatli so'zni tarjima qilishda fransuz tilidagi xohish-istak maylining grammatik qoidalaridan unumli foydalangan. Bizga ma'lumki, subjonctif mayli fransuz tilidagi o'ziga xos grammatik shakl bo'lib, u rus, o'zbek va ingliz kabi tillarda mavjud emas. Ushbu maylning asosiy vazifasi xohish-istak, niyat, fikr-mulohaza hamda orzu-o'ylarni ifodalashda qo'llaniladi. O'zbek tilidagi pand-nasihat tarzidagi gapga aynan subjonctif maylining qo'llanilgan fransuz kitobxonlari tushunishlari uchun ayni muddao bo'lgan.

Keyingi misolda ham tarjimon maqollardan o'z o'rnida foydalangan:

Asliyatda: - Yaxshilik qilgan kishi yaxshilik ko'radi! (25-b.)

Tarjimada: - *La bienveillance accompagne le bienveillant !* (24-b.)

Har ikki tilda mohiyatan bir xil bo'lgan maqollarning borligi xalqlar niyatining mushtarakligidan dalolatdir. Bunday tarjima asarlar esa ana shu mushtaraklikning yaqin do'stona aloqalar doirasida rivoj topishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Ba'zi kichik kamchiliklarga qaramasdan, ushbu tarjima asar o'zbek xalq rivoyatlarini jahon sahnasiga olib chiqishning yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Katta to'plamdan saralab olingan rivoyatlar insonlarga ezgu xislatlarni tarannum etib, umuminsoniy qadriyatlarining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbekona milliy ruhni o'zida aks ettiruvchi har qanday asar xorijiy tilga o'girildimi, demak, uning o'z o'rniga ega bo'lishida va xalqni tanishtirishda tarjimonning mahorati muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bunday asarlarning tarjimasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Zero o'zbek degan nomning xalqaro doirada o'z o'rniga ega bo'lishida milliy qadriyatlarimizning ahamiyati katta.

Adabiyotlar

Эргаш Очилов. Шарқ ҳикоят ва ривоятлари.- Т.:“Шарқ” нашриёти, 2013., - Б. 3.

Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент, 2004. –Б. 323.

Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд.- Тошкент, 1968, -Б. 66.

Э.Худойбердиев. Адабиётшуносликка кириш.- Т.:“Шарқ” нашриёти , 2008.-Б. 48.

Iveta Todorova-Pirgova. *Langue et esprit national : mythe, folklore, identité.* Sofia-2001

Droixhe, D. (2014). *Littérature Féminine, Esprit National. Découverte et Traductions de la Poésie Allemande des Lumières dans le Journal Encyclopédique.* *Studies in Literature and Language*, 8(3), 166-175.
Available from:

<http://www.cscanada.net/index.php/sll/article/view/4889>

Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари.- Т.: Фан.-2005., 299-б.

Кун Н.А.Юнон афсона ва ривоятлари. - Самарқанд-2005, -Б. 3.

www.znuz.uz

Portrayal of the oriental spirit in Uzbek narratives

Hasan Hamzaev¹

Abstrakt.

In Eastern enlightenment and aesthetic thought, stories and folklore are significant. The definitions of narration and aspects of the genre are also highlighted in this article. Additionally, folklore, narratives, and stories that express the oriental spirit were researched. Analyses are also done on how this oriental spirit is translated.

Keywords: *narrator, story, spirit, East, literary genre, translation*

References

- Ergash Ochilov. Sharq hikoyat va rivoyatlari.- T.:“Sharq” nashriyoti, 2013., -B. 3.
- Ўzbekiston milliy entsiklopediyasi. 7-zhild. – Toshkent, 2004. –B. 323.
- Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-zhild.- Toshkent, 1968, -B. 66.
- E.Khudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish.- T.:“Sharq” nashriyoti , 2008.- B. 48.
- Iveta Todorova-Pirgova. Langue et esprit national : mythe, folklore, identité. Sofia-2001
- Droixhe, D. (2014). Littérature Féminine, Esprit National. Découverte et Traductions de la Poésie Allemande des Lumières dans le Journal Encyclopédique. Studies in Literature and Language, 8(3), 166-175. Available from:
<http://www.cscanada.net/index.php/sll/article/view/4889>
- Musayev Q. Tarzhima nazariyasi asoslari.- T.: Fan.-2005., 299-b.
- Kun N.A.Yunon afsona va rivoyatlari. - Samarqand-2005, -B. 3.
- www.znuz.uz

¹ Hamzayev Hasan R. – Karshi state university. Teacher.

E-mail: hasan-hamzayev@qarshidu.uz

ORCID ID: 0000-0001-7575-6089

For citation: Hamzaev H.R. 2023. “Portrayal of the oriental spirit in Uzbek narratives”. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (2): 22-30.

Abstarkt

Bugungi dunyo tilshunosligida metafora hodisasini o'rganish borasida yetarlicha bilim va ko'nikmalar mavjud bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, ayniqsa uning tafakkur va inson omili bilan bog'liq xususiyatlari izlanishlar markaziga qo'yilmoqda. Bu esa til va tafakkur masalalari inson ongida bilish jarayonlari bilan bog'liq yangi g'oyalar shakllanishida ustuvor omildir.

Maqolada o'zbek va fransuz tillarida metafora hodisasini o'rganishga doir tadqiqotlar o'rganilgan va fikrlar tahlil qilingan. Metafora milliy dunyoqarashni aks ettiruvchi lingvistik fenomen sifatida tilshunoslikning yangi yo'nalishlari nuqtai nazaridan ta'riflangan.

Kalit so'zlar: *metafora, ma'no ko'chishi, kognitiv metafora, kognitiv tilshunoslik, kontseptual yondoshuv, konsept, lingvistik hodisa, nutq uslubi.*

Kirish.

Biron-bir tilning boyligi haqida gapirilganda va unda mavjud bo'lgan va shu tilni jozibali va obrazli qilib ko'rsatadigan turli ornemental stilistik vositalar ko'zda tutiladi. Bu vositalar har bir xalqning dunyoqarashi, jamiyat qurilishi va diniy qarashlarini tavsiflaydi. Tilshunos olim N.Mahmudov "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"ga yozgan muqaddimasida B.Maslovaning (B.Маслова. Лингвокультурология. -М., «Академия», 2001. -208 с.): «xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi ma'lumotlarning eng qimmatli manbasi frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar va shu kabilardir, ularda asotirlar, afsonalar, urf-odatlar go'yoki konservatsiyalangan xolatda saqlangan bo'ladi», degan fikrlarini keltirib o'tgan. [11:4]

Til va nutq sistemasi jarayonida so'zlarning ma'nolari turli kontekst va holatlarda semantik va stilistik qo'layliklardan foydalanish imkoniyatini beradi. So'zlarni o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda qo'llash ham nutqning ifodaligini, ham tilning lug'at boyligini oshirish, shuningdek, inson tafakkur va fikrlashining asosiy manbasi hisoblanadi.

Ma'no ko'chishning nutqda eng keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan usullaridan bo'lgan metaforaning siri antik davrdanoq ko'plab mutaffakkir va faylasuflarni o'ziga jalb qildi va u haqida juda ko'plab asarlar yozildi.

Metafora an'anaviy tilshunoslikda ma'no ko'chishining usullaridan biri sifatida tadqiq qilingan. XX asrga kelib bu lingvistik hodisaga inson bilish jarayoninig o'ziga xos aspekti sifatida ko'plab soha kishilari, xususan

¹ Juraqobilova Hamida – Qarshi davlat universiteti, Fransuz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, s.f.n.

ORCID ID: 0000-0002-8833-9804

E-pochta: xamidajuraqobilova@gmail.com

Iqtibos uchun: Juraqobilova H. 2023. O'zbek va fransuz tillarida metafora hodisasining o'rganilishi.

O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2); 31-40.

faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va gumanitar fan vakillari ham murojaat qildilar.

“Metafora” termini dastlab Sokratning eramizdan oldingi 383 yilda yaratilgan “Evagorus” asarida tilga olinsada, qadimgi yunon faylasufi Aristotel metaforaning birinchi tadqiqotchilaridan edi. U metaforada tilga katta eksressiv kuch beradigan ijodiy salohiyatning iste’dodini (“génie”), mahoratini ko’rdi. U tildagi ayrim tushunchalarni ifodalash uchun aynan mos so’z yo’qligi bois o’xshash iboralardan foydalanish lozimligini va yaxshi metaforani yaratish uchun bu o’xshashlikni ko’ra olish kerakligi xususida o’z fikr-mulohazalarini bildirgan. Aristotel “metafora - so’z ma’nosining jinsdan turga, turdan jinsga yoki turdan turga yoki muqobillik asosida ko’chishidir”, deya ta’rif berdi. [3:39-40]

Kvintilian metaforani “qisqartirilgan o’xshatish” [2:219], sitseron esa metaforani “bir so’zgagina qisqargan o’xshatish” [2:216], deya ta’riflaydi.

Ayrim mualliflar esa o’z qarashlarida (G.Vico, C.Dumarsais, H.Blumenberg va H.Weinrich) inson tafakkurining shakllanishida metaforaning rolini e’tirof etdilar. [22:5-14]

Faylasuf olimlardan A.A.Richards klassik ritorika ko’proq metaforaning sof stilistik ma’nosi bilan chegaralanib qolganligini ta’kidlagan. U Aristotelning metaforada mahoratli bo’lish fikriga qarshi ularoq, har bir inson o’xshashliklarni sezish, payqash sababligina yashaydi, gapiradi, faqat sezgi darajasi bilangina ayrim insonlar bir-birlaridan farq qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, kishilar metaforalar orqali dunyo haqidagi tasavvurlarini to’laligicha idrok etadi. [1:44-45]

Amerikalik tilshunos olim J.Lakoff va faylasuf M.Jonsonlarning “Metaphors We Live By” (“Метафоры, которыми мы живем”) asari kognitiv tilshunoslik va umuman kognitiv fanning rivojlanishiga qo’shimcha turtki berdi. Ushbu asarda aytilishicha konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo’libgina qolmasdan, tafakkur va fikrlashning usulidir. Ularning fikricha, aksariyat odamlar uchun metafora kundalik hayotiy nutqi emas, balki noodatiy tilga tegishli bo’lgan poetik va ritorik ifoda vositasi. Bunday odamlar hayotda metaforasiz yashash mumkin, deb hisoblaydilar. J.Lakoff va M.Jonsonlar kundalik nutqda foydalanayotgan tilimiz biz har doim ham sezmaydigan metaforalar bilan to’laligini isbotlab berdi. Mualliflar: “Biz qilgan eng muhim tasdiq - bu metafora faqat tilga, ya’ni so’zlarga taaaluqli emas. Insonning tafakkur jarayonining o’zi ko’p hollarda metaforik”, deya ta’kidlaydilar. [8:25-27]

Bu esa, til va psixik hodisalarning o’zaro ta’siridagi tadqiqotlarning, xususan metaforani lingvistikaning bugungi kundagi dolzarb tadqiqotlaridan biriga aylantirdi. Rus tilshunos olimlarining ta’biri bilan aytganda lingvistik hodisa sifatida metaforaga “ikkinchi nafas” berdi”. [17:423]

A.N.Baranov J.Lakoff va M.Jonsonlarning “Metaphors We Live By” (“Метафоры, которыми мы живем”) asarining rus tilidagi tarjimasiga yozgan so’z boshisida konseptual metaforaga shunday ta’rif beradi: “Ma’lum bir

jamiyatning til va madaniy an'analarida mustahkamlangan, manba va maqsad sohalari o'rtasidagi barqaror muvofiqliklar "konseptual metafora" nomini oldi". [5:11]

N.D.Arutyunova o'zining "Метафора и дискурс" nomli maqolasida rus olimi Yu.S.Stepanovning shunday so'zlarini keltiradi: "Metaforasiz ko'rinmas dunyoning (insonning ichki dunyosi) leksikasi, abstrakt tushunchalarni ifodalovchi ikkilamchi predikatlar mavjud bo'lmagan bo'lar edi. Ularsiz esa keng qo'llanuvchi fe'llar (harakatni ifodalovchi fe'llar) ham, nafis semantikani ifodalovchi fe'llar ham mavjud bo'lmas edi". [4:9]

Metafora XX asr tilshunoslari uchun ularni birlashtiruvchi lingvistik hodisaga aylandi va uni o'rganish kognitiv fanning rivojlanishiga asos soldi.

Kognitiv fanni o'rganish ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, inson tafakkuri va uning bilish jarayonlarini falsafa, psixologiya, mantiq, tibbiyot yoki boshqa biron bir fan doirasida o'rganish va tavsiflash juda murakkab. [7:42]

Rus tilshunos olimi Ye.S.Kubryakovaning ta'kidlaganidek: "Kognitiv fan turli xil bilim sohalari mutaxassisleri - psixologlar va tilshunolar, faylasuflar va mantiqchilar, sun'iy intellekt va axborot nazariyasi, matematik modellash mutaxassislarining sa'y-harakatlarini birlashtirish natijasida fanlararo fan sifatida paydo bo'ldi". [7:42]

Metaforalar har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, an'analari, urf-odatlarini, dunyoqarashini aks ettiradigan ko'p qirrali lingvistik hodisadir. Shu bois bugungi kunda o'xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan muayyan bir til, yoki turli tillarni qiyoslash, chog'ishtirish doirasida o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Bu esa o'zbek va qiyoslanayotgan tilda gapiruvchi xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalarining rivojlanishiga, har ikkala xalqning assotsiativ tafakkuridagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlanishiga hissa qo'shmoqda.

Bu lingvistik hodisani fransuz faylasuflari va tadqiqotchilari tomonidan ham keng o'rganilgan. Fransuz olimi P.Fontane ham o'zining fransuz ritorikasiga oid tadqiqotlari bilan metaforaning lingvistik nazariyasi rivojiga hissa qo'shdi. U tildagi mavjud barcha metaforalarni ikki nom ostida: "la métaphore physique" (jismoniy metafora) va "la métaphore morale (axloqiy, etik metafora)"larga birlashtirish mumkinligi xususida fikr bildirgan. [23:103]

Barbara Taraszka-Drozdz o'z tadqiqotlarida konseptual metaforaning nazariy jihatlari va kognitiv grammatikaning fundamental prinsiplarini qiyoslash asosida metaforik hodisalarni tahlil qilishning samarali vositalarini aniqlab berdi. Olim o'z tadqiqotlarida leksik birlik sifatida tanlab olgan an "lumière" (yorug'lik) so'zining keng va tor ma'nodagi leksik maydonini aniqlagan, bu leksik birlikning boshqa sohalarda ma'no jihatidan kengayishi va bu so'z vositasida hosil bo'lgan metaforalarning kognitiv xususiyatlarini o'rgandi. [20:255]

Dominique Legallois metafora nazariyasini o'rganishdagi ikki jihatga: kategoriyalash jarayoni sifatida va inson tafakkuri va fikrlashining mahsuli

sifatida kognitiv nuqtai nazardan e'tibor qaratgan. Muallif bu konseptni Emil Zolyaning "L'argent" romanida qo'llanishini tadqiq qilgan. [21:165-166]

Muallif quyidagi misollarni keltirar ekan, ularning hech biri shunchaki majoziy ma'noda emas, balki "*La vie est un voyage*" ("Hayot-bu sayohat") konseptual metaforasiga asoslanganligini ta'kidlaydi:

(1) Il est arrivé à la fin de sa vie. (Uning umri poyoniga yetdi.)

(2) Il a pris un nouveau départ dans sa vie.

(U hayotida yangi bir burilish yasadi.)

(3) Depuis qu'il connaît Marie, sa vie est une impasse.

Mariyani tanigandan buyon, uning hayoti boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

(4) Vivre comme cela, ça ne mène nulle part.

(Bunday yashash hech qaerga olib bormaydi.)

Shu o'rinda olim J.Lakoff va M.Jonsonlarning "metafora kundalik hayotiy tajribalardan butunlay boshqa sohaga o'tish mexanizmdir", degan fundamental fikrini rivojlantirdi. Chunki "voyage" ("sayohat") konsepti kognitiv jihatdan yaqqol ko'zga tashlanadigan, insonlarning hayotiy tajribalarida oson o'zgarishi mumkin bo'lgan holatni anglatgani bois, mavhum hodisalarni anglatganda ham tushunish unchalik qiyin emas.

Dunyo haqidagi tasavvurlarni ifodalashda ham obrazli, ham kognitiv potensialga ega bo'lgan murakkab lingvistik fenomen sifatida zoometaforalar har bir xalqning turmush tarzidan kelib chiqqan holda insonlarning ayrim fe'l-atvori, harakati va xarakterini tasvirlab beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Fransuz tildagi "sigir", (vache), "ot" (cheval), "ho'kiz" (bœuf), "chuchqa" (cochon, cochino, porc) va "eshak" (âne, bourrique, baudet) kabi hayvon nomlari bilan hosil bo'gan zoometaforalar tadqiqida bu hayvon nomlarining majoziy va ko'chma ma'nolarda qo'llanishi va ular orqali insonlarni tavsiflovchi ichki va tashqi aloqalar R.Kadirov tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. [16:400-404]

Keyingi yillarda o'zbek tili materiali asosida o'zbek tilshunoslari tomonidan ham metaforaning lingvomadaniy, lisoniy, semantik va lingvokognitiv xususiyatlarini qiyosiy aspektda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami kengayib bormorda.

G.Qobuljonovanning izlanishlari natijasida jahon va o'zbek tilshunoslarining metaforani o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari atroflicha tahlil qilingan va o'zbek tili materiali asosida metaforaning sistemaviy tabiati lingvistik nuqtai nazardan o'rganilgan. [15:6-25]

Sh.Maxmasharipova esa olamning lisoniy manzarasida o'zining lingvokulturologik, lingvokognitiv xususiyatlari bilan ajralib turuvchi teomorfik metaforalarning kognitiv-diskursiv tabiatini ochib bergan va ularning diniy metaforadan farqli jihatlarini ko'rsatib bergan. [10:6-25]

G.Nasrullaeva o'z tadqiqotlarida insonning ichki va tashqi sifatlari bilan bog'liq bo'lgan antropotsentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy jihatlarini "inson" va "hayvon" konseptlari asosida tahlil qilib

bergan. Antropotsentrik metaforada o'zbek xalqining lingvomadaniy, etnomadaniy va etnoma'naviy tabiati ochib berilgan. [13: 6-25]

O'zbek va koreys tillarida turg'un o'xshatishlarni inson tashqi qiyofasini tasvirlovchi somatizmli o'xshatishlar vositasida lingvokulturologik aspektda tadqiq qilish asnosida har ikkala xalqning lingvomadaniyatiga xos milliy aksiologik munosabatlar o'rganilgan. Tadqiqotda o'zbek va koreys xalqlarining milliy-etnik va antropologik, xususan o'zbeklarda *qora, katta, yumaloq ko'zlar* (charosdek, munchoqdek), koreyslarda *qisiq ko'z shaklining* yangi chiqqan oy (hilol) ga qiyoslanishida, bu ikki tilda meliorativ o'xshatishlarning ko'pligi har ikkala xalq madaniyatida odob-axloq me'yorlarining ustuvorligi kabi milliy xususiyatlar o'z aksini topgan. [6:26]

Tadqiqotchi G.Rofieva metaforalar tarjimasida M.Blek va A.Richardslarning integratsion yondashuv nazariyasiga asoslangan holda o'zbek adibi E.A'zamning asarlarining fransuzcha tarjimasida konseptual metaforalarning milliy-madaniy va lingvokognitiv xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq etgan. Muallif o'zbek tilidagi konseptual metaforalarning milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlarini fransuz tiliga tarjimasida qayta yaratilishini qiyosiy tahlil qilib berish asnosida saralangan misollarni ontologik, orientatsion, strukturaviy xususiyatiga ko'ra guruhlashtirgan. [14:5-25]

Metaforani leksikografik jihatdan tadqiq qilish, ularning lug'at tarkibida tutgan o'rnini aniqlash va lug'atlarda kodifikatsiyalash ham bugungi kunda metaforani o'rganishga zamonaviy yondashuvning muhim xususiyatlaridan biridir. So'zlarning metaforik ma'nolarini izohli lug'atlarda kodifikatsiyalash tamoyillariga bag'ishlangan tadqiqotda metaforalarning leksik-semantik, leksikografik hamda lingvomadaniy aspektlari tadqiq qilindi. Metaforik ma'noli so'zlarning umumiste'mol, normativ til doirasida qo'llanish darajasi, arxaik ma'noli, neologik, dialektlarga xos va ilmiy-texnikaviy va sohaga oid metaforalarning lug'atlarda berilish tamoyillari va metaforik so'zlarga lug'atlarda stilistik, grammatik va fonetik xarakteristika berish darajasi aniqlandi. [18:51]

Metaforani milliy madaniyatning in'ikosi sifatida tadqiq etish va uni tarjimada qayta yaratish muammolari o'zbek va turk tillari materiali misolida Z.N.Xudaybergenova ilmiy izlanishlarida o'rganilgan. Tadqiqotda "metafora voqe'likning spesifik konseptualizatsiyasi bo'lib, inson mushohadasini analogik imkoniyatlarining namoyon bo'lishidir", deya ta'riflanadi. Muallifning ta'kidlashicha, metafora — avvalambor, dunyo haqidagi mushohadaning so'z shakli bo'lib, til lug'at fondini boyitish usuli hisoblanadi. Inson nafaqat metafora vositasida fikrlaydi, balki metaforalar yordamida fikrlaydi, ular vositasida o'z dunyosini quradi. Z.N.Xudaybergenova badiiy va lisoniy metaforalarning leksik mavqeini e'tiborga olgan holda ular o'rtasidagi tafovutni turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning "Dudaktan Kalbe" romanining o'zbek tiliga tarjimasini misolida tahlil qilib bergan. U o'z fikrlarini asoslashda rus tilshunos olimi N.D.Arutyunovanning (Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. — Москва:

Hayka, 1999. -896 c.) “Lisoniy metafora - anchagina bemaolol tarzda semantik munosabatga kirishadigan mustaqil leksik birlik, badiiy metafora har doim kontekst bilan bog‘liq bo‘lib, leksik mustaqillikka ega emas”, degan fikrlariga tayangan holda lisoniy metaforaning leksik ma’nosi tipik sxemalarini tuzish va strukturalashtirish mumkin bo‘lgani holda, badiiy metafora yagona va takrorlanmasdir, deb hisoblaydi. [19:175-185]

Badiiy metafora barcha zamonlarda hamma xalqlarda ancha keng va ko‘p qo‘llanadigan lingvopoetik tasviriyy vositasi sifatida badiiy matnning kitobxon tasavvurida gavdalandirishga, millatga xos bo‘lgan shaxslarning obrazli tafakkurini nomoyon etishga xizmat qiladi. Z.Muqimovning O‘tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida onomastik metafora madaniy mentallikni ifodalash vositasi sifatida o‘rganilgan. Muallif o‘z tadqiqotida onomastik metafora maqomida adib asarlarida nomlari zikr etilgan Gamlet, Otello, Gitler kabi universal; Alpomish, Barchin, Go‘ro‘g‘li, Qorabotir, Layli, Majnun, Otabek kabi milliy pretsedent nomlarini kuzatgan holda, “Tohir va Zuhra” dostonidagi qahramonlardan biri Qorabotir nomini o‘zbek lingvomadaniyatida sevishganlar yo‘liga g‘ov bo‘ladigan qora niyatli shaxs sifatida “qora” so‘zining “razil, yomon niyatli” ma’nosida qo‘llanilganligiga o‘z munosabatini bildirib o‘tgan. [12:59]

Xulosa. Metafora gumanitar sohada olib borilgan tadqiqotlarning eng asosiy va ko‘p o‘rganilgan “an’anaviy” ob’ektlaridan biridir. Biroq, ko‘p yillik qiziqishlarga qaramay metafora ko‘p qirrali va ko‘p funksiyali hodisa sifatida zamonaviy lingvistikaning turli yo‘nalishlarining ko‘p o‘rganilayotgan tadqiqot ob’ekti bo‘lib qolmoqda.

Bugungi jahon tilshunosligida metafora hodisasini o‘rganish borasida yetarlicha bilim va ko‘nikmalar mavjud bo‘lishiga qaramay, unga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, ayniqsa uning tafakkur va inson omili bilan bog‘liq xususiyatlari izlanishlar markaziga qo‘yilmoqda. Bu esa til va tafakkur masalalari inson ongida bilish jarayonlari bilan bog‘liq yangi g‘oyalar shakllanishida ustuvor omildir. Ma’lumki, ushbu masalalar ayniqsa tillarning lingvomadaniy, lingvokognitiv aspektlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mutaxassislar ta’kidlaganidek, “til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq: u unda unib chiqadi, rivojlanadi va uni ifodalaydi”. [9:9]

Adabiyotlar

Айвор А.Ричардс. Философия риторики. Метафора. Мақола quyidagi to‘plamga kiritilgan. Теория и метафоры. Под редакцией Н. Д.Арутюновой и М.А.Журинской. Э.Кассирер, Р.Якобсон, А.Ричардс, М.Блэк, Дж.Серль, Д.Вежбицка, А.Ортони, Дж.Лакофф, Н.Гудмен и др. Москва, “Прогресс”, 1990. -С. 44-45.

Античные теории языка и стиля. Под редакцией О.М.Фрейденберг. -Л., 1936. -344 с., 39-40.

Аристотел. Поэтика. - Л., 1927. -С. 39-40.

- Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория и метафоры. Под редакцией Н.Д.Арутюновой и М.А.Журиной. Э.Кассирер, Р.Якобсон, А.Ричардс, М.Блэк, Дж.Серль, Д.Вежбицка, А.Ортон, Дж.Лакофф, Н.Гудмен и др. Москва, "Прогресс", 1990. - С. 9.
- Баранов А.Н. Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. - М.: Едиториал УРСС, 2004. -С. 11.
- Жо Минг Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий таъқиқи. Филол.фан.фал.д-ри. дисс.автореф. - Тошкент, 2023. -57 б.
- Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / Рос. академия наук. Ин-т языкознания. - М.: Языки славянской культуры, 2004. - С.42.
- Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004. -С. 25 - 27.
- Маслова В. Лингвокультурология. - М., «Академия», 2001. -С. 9.
- Махмашарипова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфимик метафораларнинг когнитив аспекти. Филол.фан.фал.д-ри. дисс. - Қарши, 2018.
- Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент, "Маънавият", 2013. -С.4.
- Муқимова З.Р. Ўтқир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари. Филол.фан.фал.д-ри. дисс.автореф. - Тошкент, 2020. - 59 б.
- Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспектлари. Филол.фан. фал.д-ри. дисс.автореф. - Нукус, 2019.; Насруллаева Г. Тилшуносликда антропоморфик метафораларнинг ўрганилишига доир. DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.51.87.032>. -С. 219-225.
- Рофиева Г.К. Ўзбек тилидан француз тилига концептуал метафоралар таржимасининг ўзига хос хусусиятлари. Филол.фан.фал. д-ри. дисс. автореф. -Тошкент, 2020.
- Қобулжонава Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик таъқиқи. филол.фан.номз...дисс.. -Тошкент, 2000.
- Кадилов Р. Н. Зоометафора во французском языке. Бюллетень науки и практики. Bulletin of Science and Practice. научный журнал (scientific journal). - Т. 4. №3. 2018 г. <http://www.bulletennauki.com>. -С. 400-404.
- Осокина С.А., Карпухина В.Н., Савочкина Е.А. Лингвистические исследования метафоры: краткий обзор. Мир науки, культуры, образования. № 4 (89) 2021. -С.423.]

- Эгамбердиев Ж. Ж. Сўзларнинг метафорик маъноларини изоҳли луғатларда кодификациялаш тамойиллари. Филол.фан.фал.д-ри. дисс. автореф. -Андижон, 2020. - 51 б.
- Худайберганаова З.Н. Метафора феноменини миллий маданиятнинг инъикоси сифатида тадқиқ этишнинг замонавий йўналишлари ва таржимада қайта яратиш муаммолари. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan". 2020, № 4 (33),175-185.
- Barbara Taraszka-Drożdż. Schémas d'extension métaphorique. À partir de l'analyse des contenus et des organisations conceptuels de certaines unités lexicales se référant à la lumière. Uniwersytetu Śląskiego, Katowice, 2014. - p. 255.
- Dominique Legallois. L'approche cognitive de la catégorisation par métaphore: illustration et critique à partir d'un exemple d'É. Zola. Pratiques [En ligne], 165-166 | 2015. URL: <http://journals.openedition.org/pratiques/2485> ; DOI: <https://doi.org/10.4000/pratiques.2485>
- Marco Fasciolo, Micaela Rossi. Métaphore et métaphores: les multiples issues de l'interaction conceptuelle. Dans Langue française 2016/1(№ 189), Éditions Armand Colin. -P. 5-14.
- Fontanier P. Les Figures du discours. -P.: Flammarion, coll. "Champs Classiques", 1977. -P. 103.

Study of metaphor phenomenon in Uzbek and French languages

Hamida Juraqobilova¹

Annotation

Despite the fact that there is enough knowledge and skills to study the phenomenon of metaphor in today's world linguistics, the interest in it is increasing, especially its features related to thinking and the human factor are put in the center of research. This is a priority factor in the formation of new ideas related to cognitive processes in the human mind.

In the article, studies on the study of the phenomenon of metaphor in the Uzbek and French languages are studied and opinions are analyzed. Metaphor is defined in terms of new directions of linguistics as a linguistic phenomenon that reflects the national worldview.

Key words: *metaphor, transfer of meaning, cognitive metaphor, cognitive linguistics, conceptual approach, concept, linguistic phenomenon, speech style.*

¹ Juraqobilova Hamida – Qarshi davlat universiteti, Fransuz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, s.f.n.

ORCID ID: 0000-0002-8833-9804

E-pochta: xamidajuraqobilova@gmail.com

Iqtibos uchun: Juraqobilova H. 2023. "Study of metaphor phenomenon in Uzbek and French languages". O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2); 31-40.

References

- Ayvor A.Richards. *Filosofiya ritoriki. Metafora. Maqola quyidagi to'plamga kiritilgan. Teoriya i metafory. Pod redaktsiyey N. D.Arutyunovoy i M.A.Zhurinskoy. E.Kassirer, RYakobson, A.Richards, M.Blek, Dzh.Serl', D.Vezhbitska, A.Ortoni, Dzh.Lakoff, N.Gudmen i dr. Moskva, "Progress", 1990. -S. 44-45.*
- Antichnyye teorii yazyka i stilya. Pod redaktsiyey O.M.Freydenberg. -L., 1936. - 344 s., 39-40.
- Aristotel. *Poetika*. - L., 1927. -S. 39-40.
- Arutyunova N.D. *Metafora i diskurs. Teoriya i metafory. Pod redaktsiyey N.D.Arutyunovoy i M.A.Zhurinskoy. E.Kassirer, RYakobson, A.Richards, M.Blek, Dzh.Serl', D.Vezhbitska, A.Ortoni, Dzh.Lakoff, N.Gudmen i dr. Moskva, "Progress", 1990. - S. 9.*
- Baranov A.N. *Lakoff Dzhordzh, Dzhonson Mark. Metafory, kotorymi my zhivem: Per. s angl. / Pod red. i s predisl. A. N. Baranova. - M.: Yeditorial URSS, 2004. -C.*
- Jo Ming Yong. *O'zbek va koreys tillarida o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.fal.d-ri. diss.avto-ref. -Toshkent, 2023. -57 b.*
- Kybpyakova E.C. *YAzyk i znaniye: Na puti polucheniya znaniy o yazyke: Chasti rechi s kognitivnoy tochki zreniya. Rol' yazyka v poznanii mira / Ros. akademiya nauk. In-t yazykoznaniya. - M.: YAzyki slavyanskoy kul'tury, 2004. - S.42.Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004. -С. 25 - 27.*
- Maslova V. *Lingvokulturologiya. - M., «Akademiya», 2001. -S. 9.*
- Maxmasharipova Sh. *Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfimik metaforalarning kognitiv aspekti. Filol.fan.fal.d-ri. diss. -Qarshi, 2018.*
- Mahmudov N., Xudoyberganova D. *O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. - Toshkent, "Ma'naviyat", 2013. -S.4.*
- Muqimova Z.P. *O'tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.fal.d-ri. diss.avto-ref. -Toshkent, 2020. - 59 b.*
- Nasrullaeva G. *Antrotseptik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspektlari. Filol.fan. fal.d-ri. diss.avto-ref. -Nukus, 2019.; Nasrullaeva G. Tilshunoslikda antropomorfik metaforalarning o'rganilishiga doir. DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.51.87.032>. -S. 219-225.*
- Rofieva G.K. *O'zbek tilidan fransuz tiliga konseptual metaforalar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari. Filol.fan.fal. d-ri. diss. avto-ref. -Toshkent, 2020.*
- Qobuljonova G.K. *Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. filol.fan.nomz...diss.. -Toshkent, 2000.*
- Kadirov R. N. *Zoometafora vo fransuzskom yazyke. Byulleten nauki i praktiki. Bulletin of Science and Practice. nauchnyy jurnal (scientific journal). - T. 4. №3. 2018 g. <http://www.bulletennauki.com>. -C. 400-404.*

- Osokina S.A., Karpuxina V.N., Savochkina Ye.A. Lingvisticheskie issledovaniya metaforы: kratkiy obzor. Mir nauki, kultura, obrazovaniya. № 4 (89) 2021. -С.423.]
- Egamberdiev J. J. So'zlarning metaforik ma'nolarini izohli lug'atlarda kodifikatsiyalash tamoyillari. Filol.fan.fal.d-ri. diss. avtoref. -Andijon, 2020. - 51 b.
- Xudayberganova Z.N. Metafora fenomenini milliy madaniyatning in'ikosi sifatida tadqiq etishning zamonaviy yo'nalishlari va tarjimada qayta yaratish muammolari. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan". 2020, № 4 (33),175-185.
- Barbara Taraszka-Drożdż. Schémas d'extension métaphorique. À partir de l'analyse des contenus et des organisations conceptuels de certaines unités lexicales se référant à la lumière. Uniwersytetu Śląskiego, Katowice, 2014. - p. 255.
- Dominique Legallois. L'approche cognitive de la catégorisation par métaphore: illustration et critique à partir d'un exemple d'É. Zola. Pratiques [En ligne], 165-166 | 2015. URL: <http://journals.openedition.org/pratiques/2485> ; DOI: <https://doi.org/10.4000/pratiques.2485>
- Marco Fasciolo, Micaela Rossi. Métaphore et métaphores: les multiples issues de l'interaction conceptuelle. Dans Langue française 2016/1(№ 189), ÉditionsArmand Colin. -P. 5-14.
- Fontanier P. Les Figures du discours. -P.: Flammarion, coll. "Champs Classiques", 1977. -P. 103.

Fe'l semantikasini kognitiv modellashtirish

Manzura Muratova
Qarshi DU (kata o'qituvchi)

Abstrakt

Ushbu maqolada bugungi tilshunoslikning diqqat markazidagi masalalardan biri fe'l semantikasi, uning kognitiv modellashuvi va leksik – semantik tizimi tadqiqot obekti sifatida olingan. Vaholanki, lingvistik hodisaning semantik jihatlarini to'la o'rganmay turib, uning mohiyatini shuningdek, tabiatini to'la ochib bo'lmaydi. Fe'llarning boshqa turkumlarga nisbatan grammatik shakl va kategoriyalarga boy ekanligi ma'lum. Shu bilan birga, fe'llar paradigmatic jihatdan serqirra hamda sintagmatik tomondan keng qamrovlidir. Fe'lning eng muhim xususiyati ularning til leksikasida eng salmoqli o'rni hamda gapdagi markaziy o'rinni egallashidir. Shuning uchun ham, qadimgi tilshunoslikka oid asarlarda fe'l alohida turkum sifatida qayd etilgan. Fe'lning serqirraligi uning semantik xususiyatlari va tasnifida yaqqol ko'rinadi.

Kalit so'zlar: fe'l semantikasi, kognitiv modellashuv, onologik ta'limot, ekstralingvistik voqelik, moddiy qobiq, struktur, emotiv va denotativ ma'no, kontseptual, ierarxik tuzilish, leksik – semantik maydon, timatik guruh

Kirish

Tilning leksik-semantik tizimini, lug'atning tizimli tabiatini bilish g'oyasi ontologik (borliq) va amaliy jihatdan turli darajalarning o'zaro ta'sirida singib ketgan va ekstralingvistik voqelikka xos bo'lgan aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi tadqiqotlarning til birliklari mikrotizimlarini tadqiq qilish ehtiyoji orqali kelib chiqqan. XX asrning 50-yillarida bu g'oya leksik semantik tizimning turli quyi tizimlari va mikrotizimlarini o'rganishda amalga oshirila boshladi. G'oyani amalga oshirish bilan bir qatorda, leksikologiya mikrotizim birliklarini bog'laydigan bog'lanish va munosabatlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, u leksik semantik tizimni bir butun sifatida ko'rsatishga qodir degan ishonch tasdiqlandi.

Til birliklarining leksik ma'nosi - bu ushbu birliklarning semantik mazmuni bo'lib, ongda aks ettiruvchi va unda ob'ekt, xususiyat, jarayon, hodisa va boshqalar haqidagi g'oyani mustahkamlaydi. L.A. Novikov lug'aviy ma'noni "ob'ekt, hodisa yoki munosabatlarning ongdagi ma'lum in'ikosi", uning ichki tomoni sifatida so'z tarkibiga kiradigan "so'zning tovushi moddiy qobiq vazifasini bajaradi" deb hisoblaydi. (Novikov 1982: 101). V.V. Vinogradov leksik ma'noning umumiy ta'rif berib: "ma'lum bir til grammatikasi qonunlariga muvofiq tartibga solingan, ushbu til lug'atining umumiy semantik tizimining elementi" (Vinogradov 1977: 168) deydi.

Mavzuga oid tadqiqotlar tahlili

Leksik ma'no va belgining tushunchaga munosabati sifatidagi ilk qarash F.De Sossyur tomonidan kiritilgan va biroq, bu til birliklaridagi aniq bir ma'no, ularni nutqda qo'llanilganda aniq chegarasi, tizimli aloqalari va ulardan nutqda foydalanish normalari to'g'risida qat'iy ta'rifga ega emasdi. (Issledovanie po semantike 1983: 14). Shu o'rinda L.M.Vasilev Sossyurdan farqli o'laroq, anglatuvchi (tovush shakli) va anglatmish (mazmun) o'rtasidagi munosabatni assotsiativ, aqliy bog'lanish sifatida emas, balki funktsiya sifatida izohlaydi (Vasilev 1990: 69). Vasilevning so'zlariga ko'ra, "funktsiya" tushunchasi "ma'no" tushunchasidan kengroqdir, chunki funktsiya ham semantik, ham sof rasmiy bo'lishi mumkin. Demak, aytishimiz mumkinki, "ma'no, bir tomondan, munosabat tarkibiy qismining so'z shakli, ikkinchi tomondan esa, o'zida aks ettirilgan voqelik ob'ektidir" (Issledovaniya po semantike 1983: 14). L.M. Vasilev, ma'noning munosabat sifatida ta'rifi lingvistik ma'noning ichki mazmuni anglatmaydi va uni boshqa lingvistik ma'lumotlardan chegaralamaydi, deb hisoblab, lingvistik ma'noni yagona to'g'ri tushunchasi bu ruxiy mohiyatidadir, deydi. (Vasilev 1981: 15). D.N.Shmelevning ta'kidlashicha, til birliklarining ma'nosi belgilangan hodisaning aqliy va hissiy bilish natijasini ifodalovchi kategoriya sifatida belgilanadi. Til birliklarining semantikasi kognitiv jarayonning uchta "ishtirokchisi" - so'z, predmetning nomi va uning ongimizda aks etishi (tushuncha, tasvir yoki fikr) munosabatlarida shakllanadi. (Shmelev 2006: 198). Shu bilan birga, V.V. Vinogradov ta'kidlaganidek, "til birliklarining semantikasi nafaqat uning ushbu birlik yordamida ifodalangan tushunchaga mos kelishi bilan belgilanadi, balki bu so'z turkumining xususiyatiga, so'z qaysi grammatik kategoriyaga mansub bo'lganiga, uni qo'llashning tipik kontekstlariga, boshqa til birliklari bilan leksik bog'lanishiga, so'zning sinonim va o'xshash ma'noli so'zlar bilan semantik bog'lanishiga, so'zning ekspressiv va stilistik buyog'iga bog'liq. (Vinogradov 1977: 166).

Shu tariqa tilshunoslikda leksik semantika uchta asosiy turga ajratila boshlandi:

1. *Predmet, hodisa, ish - harakat va voqelik sifatlariga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri yoki normativ ma'noni ifodalovchi semantika.* V.V.Vinogradov buni "barcha boshqa ma'nolar va ilovalarning tayanchi va ijtimoiy ongli asosi" deb hisoblaydi. To'g'ridan-to'g'ri ma'no erkin deb ataladi, chunki uning faoliyati odatda chegaralanmagan va frazeologik birikmalar bilan bog'lanmagan. So'zning nominativ ma'nosining qo'llanish doirasi ob'ektlarning o'zi, real dunyo jarayonlari va hodisalarining aloqalari va munosabatlariga mos keladi: stol, to'y marosimi, suhbat qurish va boshqalar.
2. *Frazeologik jihatdan bog'langan ma'nolar* faqat qat'iy belgilangan so'z birikmalarida namoyon bo'lishi mumkin. Bu kabi so'zlarning o'zaro bog'lanishlari cheklangan. Masalan, 'bulbuldek sayradi' birikmasi faqat gapirishga nisbatan qo'llaniladi.

3. *Gap tarkibidagi qat'iy belgilangan vazifadagi so'zlarning sintaktik jihatdan belgilangan ma'nosi* ularning gap bo'lagi sifatidagi sintaktik xususiyatlari semantik belgilarini hosil bo'ladi. Masalan, so'zlashuv nutqida v.h.

Tadqiqot metodologiyasi

Til birliklarining leksik ma'nosi uning semantikasi, pragmatikasi va sintaktikasi bilan belgilanadigan murakkab tuzilmadir. Semantik ma'noda leksik ma'no tarkibida belgi va denotativ tomonlar farqlanadi. Pragmatik jihatga ko'ra, so'zning leksik ma'nosi ekspressiv-emotsional baho va konnotatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ma'noning sintaktik tomoni sintagmatik tarzda - ibora va gapdagi til birliklarining boshqa ma'nolari bilan bog'lanish orqali va paradigmatic jihatdan - sinonimik qator ichidagi pozitsiyasi bilan belgilanadi.

Ma'noning turli tomonlari "til birligining leksik ma'nosi - bir butunlik doirasida chambarchas bog'liq va o'zaro ta'sirga ega bo'ladi", chunki "ular bir xil mohiyatni turli tomonlardan, turli yo'llar bilan tavsiflaydilar" (Novikov 1982: 97). Tilshunoslikda leksik ma'noning quyidagi jihatlari ajratiladi: **struktur** (sintagmatik va paradigmatic), **emotiv va denotativ**.

Struktur ma'no - "leksik birlikning til tizimidagi o'rnini belgilovchi xususiyatlarining rasmiy xarakteristikasi xisoblanadi". Unda sintagmatik va paradigmatic belgilarning (birliklarning) bir-biriga munosabati ochiladi, shu munosabat bilan tarkibiy ma'noning ikkita kichik turi ajratiladi: *Sintagmatik tuzilmali ma'no* - leksik birliklarning matnda bir-biri bilan bir vaqtda bog'lanishida ma'lum ketma-ketlikni tashkil etuvchi munosabatlarining o'ziga xos xususiyatini namoyon etadi. U valentlik (tilda potensial moslik) yoki moslik (nutqda) deb ataladi. *Paradigmatic struktur ma'no* - leksik birliklarning semantik jihatdan o'zaro bog'langan va bir-biriga (paradigmatic jihatdan) qarama-qarshi qo'yilgan munosabatlar sanaladi. U ma'no yoki differensial ma'no anglatuvchi deb nomlanadi. (Novikov 1982: 180 - 181).

Emotiv ma'no - "stilistik buyoqlar va leksik birliklar yordamida ifodalangan maxsus lingvistik ifoda xisoblanadi." Bu leksik ma'noning baholovchi, emotional, ekspressiv, stilistik xususiyatga ega bo'lgan komponentidir. Emotiv ma'no pragmatik xususiyatga ega bo'lib, so'zlovchining til amaliyotida qo'llaydigan so'zlari va bu so'zlarning mazmuniga munosabati, shuningdek, bunday so'zlarning odamlarga tegishli ta'siri sifatida aniqlanadi (Novikov 1982: 183).

Denotativ ma'no "leksik birlikning predmet ma'nosi"dir. U til birligining voqelikning muayyan ob'ektiga, berilgan vaziyatga munosabati orqali aniqlanadi (Novikov 1982: 184).

Ma'lumki, tizimlilik tilning butun lug'at tarkibiga asoslanadi, shu bilan birga so'zlarning semantik guruhlarini tahlil qilish biz uchun dolzarbdir. M.M.Pokrovskiy ta'kidlaganidek, "so'zlar va ularning ma'nolari bir-biridan alohida hayot kechirmaydi, balki bizning qalbimizda, ongimizdan qat'i nazar, turli guruhlariga birlashadi va guruhlash uchun asos asosiy ma'nodagi o'xshashlik yoki to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilikdir" (Pokrovskiy, 1986: 82).

Leksik birliklarni tasniflashda soʻz birikmalarining nomenklaturasini oʻrnatish va ularning tipologiyasini aniqlash muammosi paydo boʻladi. Soʻzlarning oʻzaro birikishi turli nomlarni oladi: "guruhlar", "maydonlar", "leksik", "leksiko-semantik", "semantik", "tematik", "ideografik", "kontseptual", "ogʻzaki", "lingvistik" (Slesareva, 2010: 49-50). Hozirgacha tilning leksik-semantik tizimidagi soʻzlar oʻrtasidagi koʻp oʻlchovli munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladigan terminologiyada toʻliq bir xillik mavjud emas. Ogʻzaki guruhlariga boʻlinish tamoyillari va atamalarining xilma-xilligi boʻyicha turli nuqtai nazarlarga qaramasdan, atamalarining maʼlum bir tartibida ifodalangan birlashmalarning alohida turlarini farqlashning umumiy tendensiyasi ham mavjud. E.V.Kuznesovaning taʼrifiga koʻra, "soʻz sinflari - leksik paradigmalarining namoyon boʻlishining maksimal shaklidir. Ular soʻzlarning kichik yoki katta koʻlamdagi bogʻlanishi bilan birikib, oʻzida semantik paradigmalarni namoyon qilib, ular tarkibiga kiradigan paradigmalarining ogʻzaki oppozitsiyalarga qaraganda ancha hajmli va murakkabroqdir (Kuznesova 1980: 48). L.M.Vasilevning fikricha, bir soʻz turkumining semantik sinfi, paradigmatik tipdagi leksik soha boʻlib, aʼzolari umumiy maʼno bilan bogʻlangan guruhlardan iborat boʻladi. (Vasilev 1990: 126).

Zamonaviy tilshunoslikda lugʻatning tizimli tabiatining eng tipik koʻrinishi soʻzlarning semantik guruhlari deb tan olinadi, ular uchun turli atamalar qoʻllaniladi: leksik-semantik guruhlar, tematik guruhlar, semantik paradigmalar, semantik, assotsiativ, kontseptual sohalar, oʻzgarmas va funksional sinflar. (Leksik-semantik guruhlar 1989: 6).

Zamonaviy semantik tadqiqotlarning vazifalaridan biri til birliklarining maʼnolarini, ularning turli bogʻlanishlarini, turli semantik sohalarning tarkibi va tuzilishini oʻrganish boʻlib, koʻplab tilshunoslar lingvistik semantikani maydon usuli bilan tahlil qilish samarali va istiqbolidir, deb hisoblaydilar. (Vasilev 1990: 20-21). Leksik birliklarning semantikasini oʻrganishda semantik maydon muhim oʻrin tutadi. Nemis olimi Y.Trir (J.Trier) semantik maydon nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Uning nazariyasiga koʻra, har bir soʻz faqat tegishli sohaning bir qismi sifatida maʼno oladi va til vakillari soʻzning maʼnosini faqat shu sohadagi boshqa soʻzlarning maʼnolarini bilsagina anglay oladilar. Y.Trir til tizimini ierarxik ravishda ikki turdagi: bir-biriga parallel, konseptual va ogʻzaki sohalarga ajratishni taklif qildi (har bir soha elementar birliklar - tushunchalar yoki soʻzlardan iborat) (Vasilev 1971: 107).

Zamonaviy tilshunoslikda semantik maydon "umumiy mazmun bilan (baʼzan umumiy rasmiy koʻrsatkichlar bilan) birlashtirilgan va belgilangan hodisalarning kontseptual, predmetli yoki funksional oʻxshashligini aks ettiruvchi til birliklari toʻplami" deb taʼriflanadi. Semantik maydon quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi: 1) tashkil etuvchi soʻzlar oʻrtasida semantik munosabatlarning mavjudligi; 2) bu munosabatlarning tizimliliigi; 3) leksik birliklarning oʻzaro bogʻliqligi va oʻzaro taʼriflanishi; 4) maydonning nisbiy tobeʼligi; 5) uning semantik makonini belgilashning uzluksizligi; 6)

butun leksik tizim doirasidagi semantik maydonlarning o'zaro munosabati (Kobozeva 2000: 99).

Aksariyat asarlarda hozirda semantik soha va leksik-semantik maydon atamaları sinonim sifatida qo'llanadi. I.P. Slesareva til birliklarining semantik yoki leksiko-semantik maydonlari LSGdan kengroq deb ataydi (rang, tovush, hid sohalari) (Slesareva 2010: 54). Shuningdek, leksik-semantik maydon atamasini semantik maydon termini bilan almashtirish tendensiyasi mavjud. Masalan, rus tili ensiklopediyasida semantik maydon "umumiy (o'zgarmas) ma'no bilan birlashtirilgan va tilda ma'lum bir kontseptual sohani aks ettiruvchi leksik birliklar to'plamining ierarxik tuzilishi" deb tushuniladi («ierarxicheskaya struktura mnojestva leksicheskix yedinis, ob'edinyonnyx obşım (invariantnym) znacheniem i otrajayущix v yazyke opredelyonnuyu ponyatiynuyu sferu» (Rus tili. Ensiklopediya 1998: 458)).

Ba'zi tadqiqotchilar esa bunday almashtirishni ma'qullaymadilar. E.I. Zinovevaning ta'kidlashicha, semantik maydon tushunchasi ancha kengroqdir va bunday maydonlarni turli ilmiy yo'nalishlar ma'lumotlari yordamida tahlil qilish kerak, shu bilan birga, leksik-semantik soha umumiylik asosida birlashtirilgan birliklarning verbal qatorini - ular ifodalagan ma'no so'z va so'z birikmalarini birlashtiradi. (Zinoveva 2005: 35). I.P.Slesareva esa eng keng maydonlarni kontseptual deb ataydi (masalan, "miqdor" maydoni) (Slesareva 2010: 54).

Verbal leksik paradigmaticaga oid asarlarda leksik-semantik guruh va semantik maydon atamalarini qo'llashda hanuzgacha bir to'xtamga kelingani yo'q. Hozirgi vaqtda ushbu muammo bo'yicha uchta asosiy nuqtai nazar mavjud (Leksiko-semanticheskie gruppy 1989: 43-44):

1. Ba'zi mualliflar bu atamalarni bir – biridan farqlamay, ularni sinonim sifatida qo'llaydilar yoki atamalardan birini eng ma'quli, deb tanlab oladilar.
2. Boshqa tadqiqotchilar guruh va maydon tushunchalarini farqlab, leksik birliklarning semantik maydondagi keng qamrovi, turli darajadagi so'z guruhlarning umumlashuvi haqida aytadilar. Semantik maydon bir qator leksik birliklarni o'z ichiga olgan bir qator LSGdan tashkil topgan maydon sifatida talqin qilinadi.
3. Uchinchi guruh tadqiqotchilari leksik birliklarning katta hajmi turli so'z turkumlarining ma'lum bir maydonga tarkibiga kiritilishidan hosil bo'ladi, deb hisoblaydilar: "Semantik maydon deganda paradigmatic xususiyatga ega bo'lgan leksik-semantik bog'lanishlarning yuqori darajasi tushuniladi. Semantik maydon bir-biri bilan bevosita semantik aloqada bo'lgan turli so'z turkumlarini o'zida birlashtiradi" (Slesareva 2010: 50). R. M. Gaysina maydon munosabatlarini tavsiflab, unda markaziy o'rinni fe'l so'z turkumiga, maydonning chekka qismiga til birliklarini ifodalavchi sifat so'z turkumi va turli vaziyatlarda ushbu til birliklariga nom beruvchi ot so'z turkumiga ishora qiladi. (Gaysina 1981: 176).

Semantik sohalarni, shu jumladan nutqning turli qismlarining birliklarini tavsiflashga bunday yondashuv eng istiqbolli xisoblanadi, chunki

nutqning turli qismlariga tegishli bo'lgan, ammo umumiy kategorik-leksik semaga ega bo'lgan soha a'zolari orasida nafaqat semantik bog'lanishlar bir xil ob'ektiv vaziyatga, balki funksional munosabatlarga ham bog'liq bo'lganligidan kelib chiqadi. (Gaysina 1982: 62).

Bizning tadqiqotimizda LSGdan kengroq hajmiga ega bo'lgan tizimni tashkil etishning umumiy prinsipi (yadro - periferiya mavjudligi bilan) va va turli so'z turkumlaridan tashkil topgan "semantik maydon" atamasidan foydalanamiz. Fikrimizcha, bu ta'rif eng to'liq va mantiqiydir. Bir tomondan, semantik maydon paradigmatic tuzilish bilan tavsiflanadi va u LSGga qaraganda ko'proq leksik birliklarni o'z ichiga oladi; ikkinchi tomondan, semantik sohaga turli so'z turkumlari kiradi. Shunday qilib aytish mumkinki, nutqiy faoliyat fe'llarining semantik sohasining o'zagiga "so'zlashish" fe'li kiradi.

Leksik-semantik maydon asosiy leksik birliklar bilan bir qatorda yadro va periferiyaning mavjudligi bilan tavsiflanadi. A. M. Kuznesov maydon markazidagi asosiy leksemalarga xos bo'lgan muhim belgilarni quyidagicha ta'riflaydi: 1) o'zining morfemik tarkibida ko'ra maydon markazidagi so'zlarning soddaligi; 2) ular keng moslikka ega; 3) til namoyondalari uchun ularning psixologik ahamiyatga ega ekanligi; 4) tobe'likning mavjud bo'lmasligi; 5) maydon markazidagi leksema ma'nosi guruhdagi boshqa so'zlardan tor bo'la olmaydi (Kuznesov 1980: 77).

Semantik maydon eng kichik ma'no anglatuvchi namuna hisoblanib, turli so'z turkumiga xos bo'lgan til birliklarini o'z ichiga oladi. O'z navbatida semantik maydon til birliklarini o'rganishda qulaylik yaratuvchi tematik guruh (TG) va bir necha til birliklaridan tashkil topgan, bir so'z turkumiga oid bo'lgan leksik – semantik guruh (LSG)dan tashkil topgan. LSG shuningdek, bir turdagi semantikaga ega bo'lgan kichik til birliklaridan tashkil topgan, o'z yadrosi, kichik guruhlari va maydon xarakteriga ega bo'lgan guruhdir. Bir LSG tarkibiga kiradigan so'zlar bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Avvalo, bir guruh so'zlarning lug'aviy ma'nolarida qatnashib, ulardagi kategorial semani aniqlab beruvchi differensial leksik semalar bu so'zlarda takroriy shakli bo'lib chiqadi. Masalan, chatter (vaysamoq) fe'llarining LSG asosidagi "chat" (suhbat qilmoq) semasi bu fe'llarning ma'nolarida quyidagi jihatlarida ko'rsatilgan: muloqot qilish, ma'lumot almashinish, fikrni bayon qilish... Buning sababi, kategorial-leksik semaning tabiati bitta LSG birliklarida ifodalanishi mumkin bo'lgan differensial belgilar tarkibini belgilab beradi. Kategorial-leksik semani aniqlash mumkinligi bir LSG so'zlarida yuzaga keladigan differensial xususiyatlar ushbu jihatlar bilan bog'liq bo'lib, ularning aspektual xarakterini belgilaydi.

Natijada, bir guruh so'zlari bir-biri bilan differensial xususiyatlarga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lib chiqadi, bu esa LSG ichidagi so'zlarning tuzilishini belgilaydigan ko'plab qarama-qarshilik birikmalariga asos yaratadi. Aynan mana shu munosabatlar LSGning ichki tuzilishida o'z aksini topadigan so'zlarning sema tuzilishiga ierarxik xususiyatni beradi. (Leksiko-semanticheskie grupy 1989: 9).

Boshqa tomondan, bir LSG soʻzlari boshqa soʻzlar bilan mos kelishini ularning oʻxshash jihatlari bilan tushintirish mumkin boʻladi, bu ularning kategorial - semasining umumiyliigi bilan ham isbotlanadi. (Kuznesova 1980: 51). Masalan, "verbs of communication" (nutqiy faoliyat feʼllari) LSG kiruvchi feʼllar maʼnosini bildiruvchilar quyidagi soʻzlar bilan birikadi: a) "to give an information" maʼlumotni yetkazish ('say'demoq, 'tell'soʻzlam, 'talk' gapirmoq,...), b) maʼlumot olish ('ask' soʻramoq, 'require' savol bermoq, aniqlashtirmoq), v) harakat natijasida hosil boʻlgan qismlar (boʻlaklarga, ikkiga boʻlingan, kichik qismlarga va hokazo)

Shu tariqa, bir LSGning soʻzlari ham maʼlum sintaktik potentsiallarga ega, yaʼni ular bir xil turdagi sintaktik vazifalarni bajarishi va muayyan kontekstli sharoitlarda oʻzaro almashish qobiliyatiga ega boʻlishi mumkin.

LSGning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri uning asosida umumiy xarakterga ega, leksik semalarga asoslangan **kategorial-leksik** deb ataluvchi leksik semalar (KLS) yotadi. Har bir soʻz turkumining oʻziga xos KLSi mavjud. Misol tariqasida, feʼl soʻz turkumining semasini aniqlaydigan KLSlari real jarayonlarning muhim belgilari va turlarini aks ettiradi ("harakat", "nutq", "fikrlash", "egalik", "ajralish"). KLSning eng muhim belgilari umumlashmaning yuqori darajasi va kategorial-grammatik semalarning eng yaqin aniqlovchisi ekanligidir. Agar LSG ana shunday KLSlar asosida tuzilgan boʻlsa, unda unga kirgan soʻzlarning bir gap boʻlagiga mansubligi tabiiy va ravshandir.

LSGning mohiyatini yanada toʻliqroq tushunish uchun ularning **tematik guruhlar** (TG) bilan munosabatlarini aniqlashtirish kerak boʻladi. Tilshunslilikga "tematik guruh" atamasini birinchilardan boʻlib kiritgan F.P. Filin TGni "leksik-semantik bogʻlanishlar emas, balki voqelikning oʻzini tasniflash asosida birlashtirilgan soʻzlar guruhi" deb tushungan (Filin 1957; 526 b.). Ushbu fikrga koʻra, TG - bu tashqi dunyo predmetlari va hodisalarini tasniflovchi, ekstralingvistik munosabatlarga asoslangan soʻzlar guruhidir. Ayni paytda F.P. Filin "tematik" va "leksik-semantik" guruhlar tushunchalari oʻrtasida aniq chegaralarni belgilamaydi. U leksik-semantik guruhlarini tematik guruhlariga ham kiritish mumkinligini taʼkidlaydi. Uning fikriga kura "bir tematik guruh doirasida kichikroq, lekin bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan soʻzlarning leksik-semantik guruhlar mavjud." (Filin 1982: 232).

Shu nuqtai nazardan, TG kengroq tushuncha boʻlib, u umumiy mavzu bilan birlashtirilgan nutqning turli qismlaridan soʻzlarni oʻz ichiga oladi va har xil turdagi jumladan, paradigmatic va syntagmatic bogʻlanishlar kuzatiladi. A.T. Lipatov TG mantiqiy voqelikni ifodalasa, LSG til birliklarini toʻliq aks ettiradi, deydi va TGdan farqli ularoq LSG yuqori darajadagi semantik uygʻunlikga egadir deb taʼriflaydi. Shuningdek, A. T. Lipatov LSGlarni butunlay lingvistik hodisa, TGlar esa mantiqiy hodisa deb hisoblaydi; LSG TGdan farqli oʻlaroq, yuqori darajadagi semantik birdamlik bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, LSG tarkibidagi asosiy soʻzni uning yadrosi deb oladigan boʻlsak, boshqa soʻzlarni uning periferiyasi yaʼni guruhdagi asosiy maʼnodan tor maʼnoga, ikkilamchi maʼnoga ega boʻlgan boshqa soʻzlari deb nomlash mumkin

hamda, periferiya LSGning neytral xarakteriga ega bo'lgan leksemalari deb ataladi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot fikrini aks etish maqsadida borliqning ilmiy ko'rinishini modellashtirish har bir tilshunosning oldiga qo'ygan vazifasiga aylandi. Tilshunoslar sensibiliyani o'zida mujassam etgan: leksik birliklarning propozitsion (gapda nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda yashirin tarzda reallashuvchi xodisa) va presuppozitsion (real borliq bilan struktur analogiyaga ega bo'lgan aktual fakt) tizimidan tashkil topgan xususan, propozitiv semantikali fe'llardan va ular orasida nutqiy fe'llarning leksik nomemalariga shuningdek, ularni sistemali, kommunikativ matn semantikasi, funksiyalari, sathlararo munosabatlaridan iborat bo'lgan LSG ga tobora yaqinlashib borganlar.

Insonning aqliy-lingual tuzilmasining ajralmas qismi bo'lgan sensibiliya til vakiliga o'z etnik guruhining namoyondasi tuyg'isini va bevosita dunyoni verbal aks ettirishning o'ziga xosligi bilan milliy tafakkur va etnik guruhning fazo-zamon kontiniumining ob'ektiv tarkibiy qismlari (tabiiy muhit va moddiy madaniyatdagi aniq farq) insonning aqliy-lingual kompleksining asosiy birliklari bo'lmish informemes holatiga to'liq mos keladigan axborot ob'ektlarining o'ziga xosligini idrok etishga imkon beradi. " [Kornilov 1999, 150],

"Semiozdan o'tgan informema bu - nom berilgan informema yoki konsepsiyadir. Konsepsiya bo'lmish informemema o'z maqomini sezilarli darajada o'zgartiradi: u nafaqat ma'lum bir shaxsning, balki etnik tilning mulki hamdir..." [Morkovkin 1997, 44]. Aynan konsepsiya milliy til ongining pretsedent hodisalarini kasb etadi va milliy tilning kognitiv bazasini asosiy tuzilma hosil qiluvchi elementlar sifatida belgilaydi va shakllantiradi.

Qolaversa, shu maqomda tilning kontsepsiya sohasida milliy dunyoqarash sifatida yondashish til namoyondalarining o'zini o'zi anglashi dunyoni lingvistik omillarda anglashga turtki bo'ladi. [Kornilov 1999,139].

Shubhasiz, lingvistik qonuniyatlarini shuningdek, dunyoning lingvistik tasvirini yaratuvchilar bu til namoyondalaridir. Vaholanki, dunyoning lingvistik qiyofasining sayqallashishi til namoyondasining professionalligi va ularning mahoratiga bog'liqdir. Tilning faoliyati - bu til tizimining rivojlanishi, aktuallashuvi demakdir. Funksionallik jarayonida tilning tizimli xarakteristikasi va xususiyatlari dolzarblashadi, aksariyat holatlarda buni funksional tahlildan tashqarida umuman bilish mumkin emas. Tizimning faoliyatini tahlil qilish orqali o'rganish tizimining ilmiy modelini va til haqidagi ilmiy bilimlarni chuqurlashtiradi va takomillashtiradi. Biroq, ilmiy modellashtirish tizimini amalga oshirilish uchun til tizimini tashkillashtirish kerak bo'ladi. Faqat shu holatda uni ilmiy bilimlarning analizidan sintezga tabiiy o'tishi deb hisoblash mumkin.

Fe'l so'z turkumi semantik tuzilishi va tizim tuzilishining murakkabligiga ko'ra birinchi o'rinda turadi va ko'pchilik tilshunoslar tomonidan

o'rganilganligiga qaramay, hali ham bir LST ga kirgan emas. O'tgan asrning 80-yillariga kelib, tilshunoslikda til tizimining bunday o'zgarishi uchun zarur bilimlar to'pladi. Olimlar leksik semantikani bilish istiqbollari, tilning leksik-semantik tizimining tizimli tuzilishini o'rganishni, sintaktik semantikani ko'rib chiqishni, sathlararo munosabatlarning aktuallashuv qonuniyatlarini bilishni ana shu yo'nalish bilan bog'ladilar.

Nutqiy faoliyat fe'llarining tizimli, funksional ahamiyati nafaqat til tizimini ifodalash, balki dunyoning til modelini shakllantirishda faol ishtirok etish qobiliyati, shuningdek, har tomonlama o'rganilgan LSG sifatida, bir tomondan, til va uning LSTni tizimli tashkil etishning eng dolzarb masalalarini hal qilish uchun material bo'lsa, boshqa tomondan, ushbu guruhning tabiati, tarkibiy tuzilishi haqidagi qarashlar, ularni tanlash va chegaralashning ob'ektiv mezonlarini ishlab chiqish talab qilinadi. Fanning rivojlanish yo'li va til tizimi haqidagi zamonaviy ilmiy bilimlar darajasi til tizimini analiz qilishdan sintezga o'tish zaruriyatni taqozo etadi va tildagi sathlararo o'zaro ta'sir dinamikasini hisobga olishni talab qiladi. Chunonchi, tizimli yondashuv uchun tilni tizimli tashkil etish va tadqiqot maqsadida tizimning elementar birligi bo'lmish so'zlar tanlanishi kerak bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, nutq fe'llarining LSGini o'rganishga murojaat qilish, tilning tizimli tabiati muammolarini hal qilishdagi muhim qadamdir. Birinchidan, bu til tizimi lug'atining - yadrosiga tegishli bo'limi bo'lib, uning har qanday funksional xilma-xilligi va shu bilan birga, umumiy til tizimining modellashuvi uchun juda muhimdir. Ikkinchidan, bu tizimning lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida boy tarixga ega bo'lgan qismidir.

Shunday qilib, nutqiy faoliyat fe'llari LSGda til, uning tasviri, tilning leksik-semantik tizimining ontologik murakkabligini ifodalash uchun nafaqat tizimga va uning dinamikasiga, balki tizimga optimal kirishga erishish imkonini beruvchi tilni modellashtirishni kognitiv tushunishga qaratilgan. Aslida metodologik jihatdagi istagimiz, nutqiy faoliyat fe'llarining LSG potensial modellashuvi o'rtasidagi ziddiyatni, til tizimni, matn va nutqiy tushunchalarini sintez qilish va ularning dinamik kognitiv aspekt jihatdan to'liq o'rganmaganliini bartaraf etish.

LSG turli sohada uni tashkil etuvchi birliklarning o'ziga xos ontologiyasiga va dunyo fenomenologiyasini o'zida mujassam etgan, tizimli, o'zaro ta'sir va aloqadagi bir butun ko'rinishiga ega. Shuningdek, u dunyoning lingvistik tasviriga, lingvistik ongiga, matndagi lingvistik shaxsiyatga egaligiga, nutqqa va nutqning ekstralingvistik holatiga mos kelishi yoki kelmasligiga karamay tilning boshqa mikrotizimlarida xam mavjudligi shubhasizdir. Shu bilan birga, o'rganilayotgan LSGning mavjudligi uning kognitiv informativlik nuqtai nazaridan yetib borishi mumkin bo'lgan chegarasi bilan uning modellashuvining maksimal darajada mos kelishi imkon beradi. Natijada, tadqiqotchi avvalgi tadqiqotchilarning tajribasi va LSG birliklarining tizim xususiyatlariga tayansada, u o'zi tadqiq etayotgan LSGning yangi va ko'p

o'lchovli modellashtirish uchun barcha ma'lumotlarga ega til tizimi, matni, nutqi va dunyo voqeligining til tasvirining yangi va turli aspektlarga xos bo'lgan LS modellashtiruviga ega bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi til tadqiqotchilarining ushbu LSGga tobora ko'proq yangi murojaatlarini taqazo qiladi va uning kognitiv talqinini yanada ko'proq talab qilish zarurligini isbotlaydi. Va bu ko'p aspektli, tizimli funksional - kommunikativ tavsifning ob'ekti va predmeti bo'lmish nutqiy faoliyat fe'llarida ham qayta va qayta namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика: учеб. пособие для вузов. – М.: Высшая школа, 1990. – 176 с.
2. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 162-189.
3. Кузнецова Э.В. Русская лексика как система: учеб. пособие. – Свердловск: Изд-во Уральского гос. ун-та, 1980. – 89 с.
4. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982. – 424 с.
5. Покровский М.М. Семасиологическое исследование в области древних языков. – М.: КомКнига, 1986. – 82 с.
6. Слесарева И.П. Проблемы описания и преподавания русской лексики: учеб. пособие. – 3-е изд., испр. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2010 – 176 с.
7. Филин Ф.П. О лексико-семантических группах слов // Езикovedски исследования в честь на акад. Стефан Младенов. – София: Бълг. акад. наук, 1957. – С. 523-538.
8. Филин Ф.П. Очерки по теории языкознания. – М.: Наука, 1982. – 336 с.
9. Шмелев Д. Н. Проблемы семантического анализа лексики. – 2-е изд., стереотипное. – М.: КомКнига, 2006. – 280 с.

COGNITIVE MODELING OF VERB SEMANTICS

Manzura Muratova (senior teacher of KSU)

Abstract

This article investigates one of the major factors of modern linguistics – semantics of the verb, its cognitive models and lexical – semantic system. Whereas, it is impracticable to deal the problem of above stated modern linguistic issues, without discussing semantic properties of linguistic approach. Moreover, it is known that verbs are rich in grammatical forms and categories compared to other categories. At the same time, verbs are paradigmatically

more diverse and syntagmatically comprehensive. The most important feature of the verb is its central role in the sentence. Verbs occupy the most important place in the lexicon of the language that is why, in works of ancient linguistics, the verb recorded as a valuable part of speech. The versatility of the verb is evident in its semantic properties and classification.

Key words: verb semantics, cognitive modeling, ontological theory, extra linguistic reality, material shell, structure, emotive and denotative meaning, conceptual, hierarchical structure, lexical-semantic field, thematic group.

References:

1. Vasilyev L.M. Sovremennaya lingvisticheskaya semantika: ucheb. posobiye dlya vuzov. – M.: Visshaya shkola, 1990. – 176 p.
2. Vinogradov V.V. Osnovniye tipi leksicheskix znacheniy slova // Izbranniye trudi. Leksikologiya i leksikografiya. – M.: Nauka, 1977. – 162-189 p.
3. Kuznetsova E.V. Russkaya leksika kak sistema: ucheb. posobiye. – Sverdlovsk: Izd-vo Uralskogo gos. un-ta, 1980. – 89 p.
4. Novikov L.A. Semantika russkogo yazika. – M.: Visshaya shkola, 1982. – 424 p.
5. Pokrovskiy M.M. Semasiologicheskoye issledovaniye v oblasti drevnix yazikov. – M.: KomKniga, 1986. – 82 p.
6. Slesareva I.P. Problemi opisaniya i prepodavaniya russkoy leksiki: ucheb. posobiye. – 3-ye izd., ispr. – M.: Knizhnyy dom «LIBROKOM», 2010 – 176 p.
7. Filin F.P. O leksiko-semanticheskix gruppax slov // Yezikovedski issledovaniya v chest na akad. Stefan Mladenov. – Sofiya: B'lg. akad. nauk, 1957. – 523-538 p.
8. Filin F.P. Ocherki po teorii yazikoznaniya. – M.: Nauka, 1982. – 336 p.
9. Shmelev D. N. Problemi semanticheskogo analiza leksiki. – 2-ye izd., stereotipnoye. – M.: KomKniga, 2006. – 280 p.

Abstrakt

Mazkur maqolada fransuz-o'zbek adabiy aloqalari, tarjima tarixi va istiqbollari, o'zbek tarjimashunos olimlar xususida gap boradi. Jahon adabiyoti, xususan, fransuz adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan eng sara asarlar va o'z navbatida o'zbek tilidan fransuz tiliga o'girilgan klassik va zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani va Usmon Azimning "Yurak" she'rining fransuzcha tarjimalari tahlilga tortilgan.

Bugungi kunda aslyatdan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qiladigan tarjimonlar tayyorlash dolzarb masala ekanligidan kelib chiqib, maqolada yosh tarjimonlar avlodini shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *tarjima, adabiy aloqa, fransuz-o'zbek, badiiy tarjima, she'riy tarjima, milliy mentalitet, shakl va mazmun.*

Kirish

Har bir millat adabiyotida xalqi ulug'lagan va xalqini ulug'laydigan shoiru yozivchilar, fozilu fuzalolari, faylasuf, allomalari bisyor. Ana shu shoiru adiblar o'z asarlarida ma'lum bir holatni obrazli ifodalaydi. Zamon qahramoni haqida, biror ijtimoiy holat haqida, tabiatning yoki jamiyatning biror bo'g'ini haqida o'zining badiiy tafakkuridan kelib chiqib, o'ta nozik did bilan, o'quvchiga zavq beradigan darajada tasvir bayon etadi.

Darhaqiqat, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyati ko'zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchi beqiyos" ekanligini bejiz aytmagan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev [Мирзиёев 2020].

Har millatning o'zi qadrlaydigan va shu millatni dunyoga tanitadigan adabiyoti, madaniyati, san'ati hamda urg-odatlarini bo'ladi. Bir xalq adabiyoti, madaniyati, turmush-tarzi, ma'naviy-axloqiy olamini boshqa xalq vakillariga yetkazish uchun muhim vosita bu tarjimadir. Zero, tarjima bir millatga mansub an'analar, voqealar, ijtimoiy-maishiy holatlar bilan biron bir til orqali boshqa bir xalqni tanishtirib borish vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi, zero, tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdoshdir. O'zbek

¹ Yarmanov Fahriddin Norboyevich – katta o'qituvchi. Qarshi davlat universiteti.

E-pochta: fyarmanov@bk.ru

ORCID ID: 0000-0005-0297-130X

Iqtibos uchun: Yarmanov, F.N. 2023. "Fransuz-o'zbek tarjimachiligi tarixi va amaliyoti". O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2): 52-60.

adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan soha hisoblanadi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Rabg'uziy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqalar ijodida tarjima ijodiy faoliyati ham katta o'rin egallaydi. Jadidlarning ma'rifatchilik harakati ham keng miqyosda ilmiy-madaniy va ma'naviy aloqalarni talab qilgan. Sho'ro davrida ham dunyo xalqlari adabiyotidan eng yaxshi asarlar tarjima qilindi. Jumladan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Hamid Olimjon, Mirzakalon Ismoilov, Zulfiya, Abdulla Qahhor kabi mashhur adiblarimiz jahon mumtoz adabiyoti vakillari L.N.Tolstoy, V.Shekspir, A.S.Pushkin, M.Lermontov, Sh.Rustaveli, N.V.Gogol, J.Bayron, V.Mayakovskiy asarlarini zo'r mahorat bilan tarjima qildilar. "Faust" (Gyote), "Ilohiy komediya" (Dante), "Ramayana" kabi jahonshumul asarlar tilimizda yangradi. O'tgan asrning 50-yillarida badiiy tarjimani ilm sifatida tadqiq etish boshlandi. Bunda A.Muxtor, J.Sharipov, G'.Salomov, N.Vladimirova, N.Komilov, K.Jo'rayev kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi. Xususan, O'zbek tilining chuqur bilimdoni, uslubshunos va qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida salmoqli ishlar yaratgan ustoz G'.Salomov tarjima nazariyasi, tarjima tarixi va tanqidini birgalikda olib bordi, rivojlantirdi. Olimning ishlari tufayli o'tgan asrning oltmishinchi yillarida O'zbekistonda o'ziga xos tarjimashunoslik ilmiy maktabi shakllandi. Q.Musayev, I.G'afurov, Z.Isomiddinov, Sh.Sirojiddinov va boshqa bir qancha tarjimashunoslar bugungi kun tarjimachiligida o'z konsepsiyasiga ega, zabardast olimlar hisoblanadi.

Hozirgi tarjimachilik va badiiy tarjima masalasida gap ketganda, avvalo, shuni e'tirof etish kerakki, bu borada ancha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jahon adabiyotining yetuk namoyandalari hisoblanmish J.Joys, F.Kafka, F.Nitsshe, G.Markes, H.Hesse, P.Koelo singari yozuvchilarning betakror asarlari keyingi o'n, o'n besh yillikda ona tilimizga mahorat bilan o'girilganini o'ziyoq bu borada qilinayotgan ezgu ishlarning amaliy isbotidir. Ayniqsa, "Uliiss"dek uslub va struktural jihatdan murakkab asarni yaxlit holatda tarjima qilinishi, Dostoyevskiy singari buyuk yozuvchining ko'plab asarlarini o'zbek tilida mutolaa qilishimiz e'tirofga arzirli hodisa, albatta.

Ammo, badiiy tarjima borasidagi erishilgan bu yutuqlar bilan chegaralanib qolmaslik, jahon adabiyoti va falsafiy tafakkurida yuz berayotgan yangilanish va betakror izlanishlardan keng boxabar bo'lish, ularni yanada izchillik va jadallik bilan ona tilimizga tarjima qilishni bugunning o'zi taqozo qilmoqda.

Jahon adabiyoti xazinasida fransuz adabiyotining qo'shgan hissasi ham e'tirofga loyiq. Stendal, O.de Balzak, G.de Mopassan, V.Gyugo, J.Vern, G.Flober, E.Zolya, J.-P.Sartr, A.Kamyu, E.Ionesko, P.Modiano singari adiblarning yaratgan asarlari jahon badiiy tafakkuri va madaniyatining yuksak namunasi sifatida tarix sahifalarini egalladi. Mazkur adiblarning asarlari allaqachon o'zbek kitobxonlarining ham ko'nglini zabt etib, noyob madaniy-ma'naviy mulkiga aylandi. O'tgan asrning 40-50 yillarida tarjimonlarimiz fransuz adabiyotining yirik asarlariga murojaat qilib, Jyul Vern, Andre Stil romanlari, Emil Zolya va Gi de Mopassan hikoyalari, Sharl Perro ertaklari bilan tanishish imkoniga ega

bo'ldilar. D.Didro, V.Gyugo, A.Dode asarlaridan parchalar tarjima qilindi. 60-70 yillarga kelib, badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti respublikada yanada keng rivoj topdi, yangi tamoyillar ishlab chiqildi. Aynan mana shu davr fransuz adabiyoti tarjimasida eng sermahsul davr bo'ldi, deyishga yetarli asoslar bor. Mohir tarjimonlar O.Sharafiddinov, I.G'afurov, S.Karomatov, H.To'rabekov, X.Ziyoxonova, S.Muhammadjonov, M.Mahmudov va boshqa tarjimonlar mashaqqatli mehnatlarining samarasi o'laroq, jami bo'lib 15 roman, 20 ortiq novella va qator fransuz shoirlarining she'rlari tarjima qilindi. Jumladan, A.de Sent-Ekzyuperining "Kichik shahzoda", Stendal, A.de Myusse va P.Merimening qator novellalari o'zbek tiliga o'girildi. Shu yillardagi eng muhim tarjimalar fransuz romanlariga tegishlidir. V.Gyugoning "Dengiz zahmatkashlari", O.de Balzakning "Yevgeniya Grande", "Gorio ota", A.Dyumaning "Uch mushketyor", "Graf Monte-Kristo", Mopassaning "Azizim", G.Floberning "Bovari xonim", P.Merimening "Karl IX saltanatining yilnomasi", Stendalning "Qizil va qora" romanlarining tarjimasida amalga oshirildi. 80-yillarga kelib, E.Zolyaning "Hamal", Stendalning "Parma ibodatxonasi", Balzakning "Sag'ri teri tilsimi", "Gobsek", J.Simenonning "Komissar Megre" va boshqa talaygina adiblar asarlari o'zbek tiliga o'girildi.

Biroq bu asarlar boy va serjilo fransuz tilidan emas, balki bilvosita rus tilidan tarjima qilingan. Achinarli joyi shundaki, ingliz, nemis, rus, hind, turk, arab tillaridan to'g'ridan-to'g'ri tarjimalar amalga oshirilayotgan bir paytda fransuz tilidan qilinayotgan tarjimalar ozchilikni tashkil qiladi. Ammo mustaqillik davriga kelib, bu muammoga biroz chek qo'yildi. Lafonten, Balzak, V.Gyugo, M.Dryun, G.Flober, Sh.Bodler, J.Seminon, A.Morua, A.Prevo, F.Sagan singari adiblarning asarlari tarjimasida rus tili yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, Sh.Minovarov F.Mariakning "Ilonlar changalida", Le Klezioning "Mondo" nomli hikoyalar to'plami, A.A'zam A.Kamyuning "Begona" va "Vabo", M.Xolbekov Volterning "Zadig yoki Taqdir", "Sohibqiron Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari", B.Ermatov Mopassan va E.Dabi novellalari, A.Ko'chiboyev P.Merimening "Kolomba" novellasi, Amin Maalufning "Samarqand" romanini, Sh.Botirova Jak Prever she'rlarini, A.Asqarov A.Truiyaya hikoyalarini bevosita fransuz tilidan ona tilimizga katta mahorat bilan tarjima qilishdi. Lekin bu ko'rsatkich kam, albatta. To'g'ri, yurtimizda fransuz tilini mukammal biladigan mutaxassislar talaygina. Ular til va adabiyotdagi eng so'nggi yutuqlarini yangiliklarni, fransuz adabiyotidagi hozirgi jarayonlarni muntazam kuzatib boradilar. Bu borada yuzaga kelayotgan muammo shundaki, talabalar o'z mutaxassislik tillarini qanchalik puxta egallamasinlar, toki shu til darajasida o'z ona tillarini bilmas ekanlar tarjimachilikda muayyan siljishga, ko'zga ko'rinadigan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Buning uchun esa jahon adabiyoti tarixi, hozirgi zamon adabiyoti darslari bilan parallel ravishda o'zbek mumtoz adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon kabi o'quv predmetlari o'tilishi talabalarning badiiy saviyasi shakllanishiga, ikki xalq tili va adabiyotini qiyosiy aspektida kuzatishlariga keng imkoniyatlar eshigi ochadi.

Zero, o'zbek adabiyoti ham o'zining bor adabiy tarixiga ega ulkan adabiyotdir. Xoh she'riyatda bo'lsin, xoh nasrda bo'lsin qanchadan-qancha buyuk allomalar, yirik adabiyot namoyandalari yetishib chiqqaniga uzoq va yaqin tarix guvoh. Biz bunday ajdodlarimiz bilan, bunday ulkan adabiyot tariximiz borligidan faqat va faqat faxrlanishimiz kerak va shu bilan birga, unga mos avlod bo'lib, ularning ijodiy ishlari bilan dunyo xalqlarini tanishtirib borishimiz ham o'ta muhim vazifa ekanligini his qilmog'imiz shart va zarur.

Mulohaza va tahlil

Bugungi globallashuv davrida, g'arb postmodernizm xuruji adabiyot orqali bashariyat shaxsiga, axloqiga, ma'naviyatiga daxl qilayotgan hozirgi paytda sharq adabiyoti, sharqona badiiy tafakkur, sharqona ma'naviyat zaruratiga ehtiyot sezilayotganini anglamoq zarur. Shunday ekan, sharq adabiyotining, xususan, milliy adabiyotimizning eng sara namunalari chet tillarga, ayniqsa, G'arb mamlakatlari tillariga tarjima namunalari ortib borayotgani quvonarli ishdir. Badiiy tarjima umuminsoniyat madaniyati, tafakkuriy kashfiyotlarni o'zlashtirish vositasidir. O'zbek folklor adabiyoti, hazrat Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari fransuz tiliga tarjima qilina boshlandi va o'zbek adabiyoti haqida fransuz sharqshunosligida maqolalar va tadqiqotlar yaratildi [Холбеков 1988, 56]. Ayniqsa, fransuz sharqshunos olimi, doktor Remi Dor janoblarining "Go'ro'g'li" turkumiga mansub "Nurali" dostoni, Alisher Navoiyning muammolari (L'enigme du nom propre / Muammo") ning fransuz tiliga tarjimasi, Fransiyada o'zbek adabiyoti targ'iboti sohasida qilgan ishlari tahsinga loyiqdir. Remi Dorning O'rta Osiyo davlatlaridagi ekspedisiyasi, olib borgan ilmiy-tadqiqotlari, folklorshunos olim va tarjimonlik faoliyatini o'rganib, ularni jamlab, ilmiy tahlil qilib Yorqinoy Nasriddinova ilmiy risola nashr ettirdi [Насриддинова 2015, 150]. Yana bir ajoyib tarjima Cho'lponning "Kecha va kunduz" ("La Nuit") romancing fransuzcha tarjimasidir. Mazkur asar tarjimasi to'g'risida tarjimashunos olim, professor R.Shirnova quyidagini ta'kidlaydi: "Abdulhamid Sulaymon Cho'lponning "Kacha va kunduz" romani yaratilganiga 80 yildan oshgan bo'lsa-da, hamon o'zbek kitobxonlarining mehriga sazovor bo'layotgani, mazkur asarga fransuz kitobxonlarining ham qiziqishi borligi qalbimizni g'urur va iftixorga to'ldiradi" [Ширнова 2013, 3]. Asar tarjimoni Stefan Dyuduanon Markaziy Osiyoda ko'p bor bo'lganligi (xususan, O'zbekistonda ham 1994-1997 yillar davomida bo'lgan), u yerdagi xalqlar madaniyati, urf-odatlar va mentalitetidan xabardorligi tarjimaning asliyatga ancha yaqin borishiga, madaniyat va mentalitetga oid lisoniy birliklarni tarjimada to'g'ri yetkazib berilishida xizmat qilgan. Tarjimashunos olim R.Shirnova bu asar tarjimasini yuqori saviyada baholab, "o'zbek xalqi mentalitetiga xos madaniy atributlar, masalan, chaqirganda "labbay" deb javob berish, turmush o'rtog'ini to'ng'ich farzandining ismi bilan chaqirish kabi bir qator milliy-madaniy odatlar va realiyalar tarjima tiliga munosib tarzda ko'chganligi diqqatni tortadi", deya ta'kidlaganda olimaning haq ekanligini e'tirof etmoq kerak. "Kecha va kunduz"

romanida milliy odat aks etgan bir parcha va uning fransuzcha tarjimasini keltiramiz:

Asliyatda: O'zbeklarda axir har bir erkak xotinini – o'z xalol juftini! – qizi yo o'g'lining nomini atab chaqiradi. O'z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmon: – sharmu xayo yuzasidan bo'lsamikan? – xotinini "Xadicha" deb chaqiradi. Aksar ona-bolalar baravar "labbay!" deydi, shundayda oilaning haqiqiy egasi bo'lgan ota: "kattangni aytaman, kattangni!" deydi. Hatto shunda ham "Maryamni", demaydi... [Чўлпон 2012, 10].

Tarjimada: Chez les Ouzbeks, le mari n'appelle jamais sa femme par son véritable prénom mais seulement par celui d'une fille, voire, d'un fils qu'il a eus d'elle. Elle considérera même dégradant pour lui de prononcer le nom de son épouse légitime. Si par exemple une femme prénommé Mariam a donné a son mari une petite Khadidja, celui-ci, s'il est un authentique musulman, appellera son épouse "Khadidja". Est-ce par pudeur devant elle ou pour autre raison mystérieuse? Toujours est-il si les deux, la femma et la fille, accourent ensemble a son appel, ce qui n'est pas rare, le véritable chef de femme qu'est le père renverra la plus jeune en lui criant: "C'est à ta mère que j'en ai, à ta mère!" jusque dans cette situation, on ne le surprendra pas a laisser échapper un "Mariam"... [Tchulpon 2009, 18].

Tarjimani tahli qiladigan bo'lsak, asliyatdagi *ona-bolalar baravar "labbay!" deydi* jumlasini *si les deux, la femma et la fille, accourent ensemble* (ayol va qiz, ikkalasi baravariga yugurib borishsa) deb tarjima qilingan. Bu yerda o'zbeklarda chaqirganda o'zbekona lutf bilan javob beradigan "labbay" realiyasi tarjimada tushurib qoldirilgan bo'lsa-da, asliyatni mazmunini ochadigan *yugurib bormoq* (accourir) so'zi bilan ifodalangan. *O'z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi* jumlasini tarjimon tomonidan *Elle considérera même dégradant pour lui de prononcer le nom de son épouse légitime*, (ya'ni, *o'z xotining ismini aytib chaqirish, uning uchun kamsitish hisoblanadi*) tarzida talqin qilingan. To'g'ri, asliyatda *kamsitish* (dégradant) so'zi qo'llanmagan, ammo tarjimon talqiniga ko'ra, erkak kishi o'z ayolini ismi bilan chaqirish hurmatsizlik deya baholangan va bu bilan sharqona yuksak madaniyatni ko'rsatib bergan. Tarjima nazariyasining asosiy konsepsiyalaridan biri shakl va mazmun mutanosibliigi masalasidir. Dyuduanon tarjimasida asliyat matnidani ko'ra ko'proq matnni ko'rishimiz mumkin. Tarjima ijodiy ish ekanligini inobatga olib, tarjimon tomonidan kiritilgan ayrim jumlar asliyat mazmunini fransuz kitobxonlariga yanada aniqroq yetib borishiga, milliy-madaniy unsurlar haqida yorqin tasavvur berishga xizmat qilgan.

O'zbek adabiyotini, mumtoz va zamonaviy o'zbek she'riyatini fransuzxabon o'lkalarga keng yoyilishi katta hissa qo'shadigan, Fransiyada nashr etilgan yana bir kitob "Anthologie de la poésie d'Ouzbékistan" (O'zbek

she'riyati antologiyasi) 2 jildli kitobi ham alohida qiymat ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu antologiyaning birinchi jildida Ahmad Yassaviydan tortib Navoiy, Bobur, Mashrab, Fitrat, Cho'lpongacha bo'lgan shoirlar, ikkinchi jildida esa U.Nosir, E.Vohidov, A.Oripovlardan boshlab Shavkat Rahmon, Usmon Azim va boshqa ko'plab shoirlar qatorida Ikrom Otamurod, Eshqobil Shukur kabi shoirlarning ham ijod namunalaridan parchalar kiritilgan. Antologiyadan o'rin olgan she'rlarni Pahlavon Turg'unov, Azam Obidov va Sirojiddin Tolipovlar yordami bilan Hamid Ismoilov hamda fransuz shoiri Jan-Piyer Balp tomonidan o'zbek tilidan fransuz tiliga bevosita tarjima qilingan va 2008-yil Fransiyada nashr etilgan [Anthologie de la poésie de l'Ouzbékistan 2008].

Ushbu antologiyaga kiritilgan O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning "Yurak" ("Le cœur") she'rini aslyat va tarjima variantlarini solishtirib, tahlil qilish natijasida quyidagilar diqqatimizni tortdi:

Aslyat matni:

Ko'ksimda bir qush bor – uchadi tinmay.

Yuksak-yuksaklarga uchar – ko'rar tush...

Uchadi yarador bo'lganin bilmay,

Uchib ketayotib o'ladi bu qush... [www.ziyouz.com sahifasi]

Fransuzcha tarjimasi:

Il y a un oiseau dans mon cœur.

Il vole toujours. Il vole toujours

Plus haut – il voit un rêve...

Il vole sans savoir qu'il est blessé,

Il meurt, en vol. [Usmon Azim 2008, 73]

Ko'rib turganimizdek, tarjimada eng avvalo qolip buzilgan, aslyatda 4 qatordan iborat to'rtlik, tarjimada besh qatorni tashkil qilgan. Nasriy asar tarjimasidan ko'ra she'riy asarlarni tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi. Shaklni kelishtiray desa ma'no qochish mumkin, mazmun hamohang kelsa, shaklga putur yetish ehtimoli ko'proq. She'rning birinchi misrasini *Il y a un oiseau dans mon cœur* tarzida tarjima qilib, tarjimonlarimiz adekvat tarjimaga erishgan bo'lsalar, ikkinchi misra haqida bunday fikr ayta olmaymiz. *Yuksak-yuksaklarga uchar* jumlasini *Il vole toujours. Il vole toujours Plus haut* ko'rinishida berib, mazmunga ancha yaqin borgan bo'lsalar-da, ammo shakl jihatdan nomutanosiblik yuzaga kelgan. *Il vole toujours* jumlasining takror ishlatilishi, hissiy-ekspressivlikni oshirgan, ma'no kuchayishiga xizmat qilgan, *Yuksak-yuksaklarga* leksik takrori tarjimada esa takrorlanmay *Plus haut* yo'sinda kelganini ko'rishimiz mumkin. Bu yerdagi *haut* so'zini *élevé* so'zi bilan almashtirish ham mumkin. *Élevé* so'zi ham *yuksak, yuqori, baland* ma'nolarini bildiradi, shu bilan birga keying misradagi *blessé* so'ziga qisman qofiyani ham ta'minlaydi. *Uchadi yarador bo'lganin bilmay* jumlasini tarjimonlar *Il vole sans savoir qu'il est blessé* tarzida o'girishib ham shakl saqlangan, ham ma'noni to'laqonli ochib berishga erishilgan. Oxirgi *Uchib ketayotib o'ladi bu qush*

jumlasining tarjimasida ham qusurlar mavjud. Masalan, *bu qush* degan soʻz tarjimada tushurib qoldirilgan, shuningdek, *uchib ketayotib* harakatini *en vol* (parvozda) koʻrinishda tarjima qilinib, asliyat kontekstiga mazmunan yaqin borilgan boʻlsa-da, stilistik jihatdan xatoga yoʻl qoʻyilgan. Bu jumlaning tarjimonlari *En volant cet oiseau, il meurt...* tarzida oʻgirish ham mumkin edi. Demak, Usmon Azimning bu sheʼrini quyidagicha tarjima qilishni taklif etamiz:

*Dans mon cœur il y a un oiseau.
Il voit un rêve – il vole plus élevé...
Il vole sans savoir qu’il est blessé,
En volant, il meurt cet oiseau...*

“Tarjimada shakl va mazmun munosabatini bejirim talqin etish zarurati sanʼatkor oldiga asarning badiiy nafosati va milliy xususiyatini yuzaga keltiruvchi barcha lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarini ijodiy aks ettira oladigan mukobil til va nutq birliklari tanlash vazifasini qoʻyadi” deya taʼkidlaydi tarjimashunos olim Q. Musayev [Mycaev 2005, 4].

Usmon Azimning “Yurak” sheʼrining biz taklif qilgan tarjima variantda sheʼr qofiyasi a-b-b-a koʻrinishida boʻlib, ham nisbatan qofiyani saqlashga, ham mazmundan yiroqlashmaslikka urindik. Bu bilan birga, shuni ham aytish kerakki, yuqorida koʻrsatilgan “Anthologie de la poésie de l’Ouzbékistan” kitobida kiritilgan sheʼrlar ayrim oʻrinlarda kamchiliklar uchrasa-da, oʻzbek sheʼriyatining dunyoga tarannum etilishida munosib xizmat qilayotganligini eʼtirof etmay boʻlmas!

Shu oʻrinda, oʻzbek fransuz adabiy aloqalarini kuchaytirish, eng sara milliy adabiyot namunalarini oʻzga tillarga tarjima qilish masalasi va bu amaliy ishni uddasidan chiqadigan iqtidorli yosh tarjimonlar avlodini tayyorlash hamda yetkazib berish masalasi yuzaga chiqmoqda.

Oliy taʼlim tizimida bir tajriba oʻtkazish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda har bir talabaga bir oʻquv yili davomida oʻzbek adiblarning hajman kichikroq bir qissa yoki publitsistik asarini fransuz tiliga (yoki xohlagan xorijiy tilga) tarjima qilish va oʻz navbatida fransuz adiblari asarlaridan oʻzbek tiliga tarjima qilish vazifasi yuklansa, bu vazifani uddasidan chiqqan talabalarning ijodiy mehnatlari respublika adabiy nashrlari orqali muntazam eʼlon qilib borilsa, talabalarning bilim va tajribalari shu asosda meʼyorga solinsa, ancha samarali natijalarga erishish mumkin deb oʻylaymiz. Bu tajribani Respublikamizdagi chet tiliga ixtisoslashgan taʼlim maskanlarida amalga oshirish mumkin. Chunki badiiy asar tarjimasini puxta va mukammal egallagan qadrlar kelajakda oʻz sohalari boʻyicha yuzaga keladigan har qanday muammoni osonlikcha hal etishlari uchun nazariy bilim va tajribaga ega boʻladilar.

Darhaqiqat, badiiy tarjimasiz, tarjimonlarning yosh toʻlqinisiz adabiy jarayondagi uzviylikni taʼminlab boʻlmaslik muammosi bugungi kunda adabiyotshunoslar va tarjimonlar oldida koʻndalang turibdi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, oʻtgan XX asr va mustaqillarning 30 yili davomida fransuz-oʻzbek tarjimachiligida ancha istiqbolli ishlar amalga

oshirildi. Hozirgi globallashuv davrida bu ko'rsatgichlarni yanada oshirmoq kerak. Bevosita tarjimalarning son va sifatini, izchilligini taminlashimiz, bu borada tarjimaga yosh tarjimonlarni jalb qilishimiz lozim.

Adabiyotlar

- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Тошкент шаҳридаги Адиблар хийбонига ташрифи чоғида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2020 йил 21 май, №106 (7608).
- Холбеков, Муҳаммаджон. 1988. Ўзбек адабиёти Францияда. Тошкент: “Фан”.
- Насриддинова, Ёрқиной. 2015. Реми Дор – фольклоршунос олим ва таржимон. Тошкент: “Наврўз” нашриёти.
- Ширинова, Раима. 2013. “Кеча ва кундуз” романи француз тилида. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 15 ноябрь.
- Чўлпон. 2012. “Кеча ва кундуз”, Биринчи китоб, “Кеча”. Тошкент: “Akademnashr”.
- Tchulpon. 2009. Nuit. – France: Bleu auteur.
- Anthologie de la poésie de l'Ouzbékistan. 2 tome. 2008. Établie, traduite de l'ouzbek et présenté par Hamid Ismailov et Jean-Pierre Balpe avec l'aide de Pahlavon Turgunov, Azam Obidov et Sirojiddin Tolibov. Édition du Sandre, 75016 Paris.
- Мусаев, Қудрат. 2005. Таржима назарияси асослари. Дарслик: Тошкент: “Фан” нашриёти.

History and practice of French-Uzbek translation

Fahriddin Yarmanov¹

Abstract

This article discusses French-Uzbek literary relations, the history and prospects of translation, and Uzbek scholars of translation. There is important information about the best works of world literature, in particular, translated from French to Uzbek, as well as examples of classical and modern Uzbek literature translated from Uzbek into French. The French translations of Cholpon's novel "Night and Day" and Osman Azim's poem "Heart" are also analyzed.

Given that the training of translators who translate directly from the original is a topical issue today, the article offers suggestions and recommendations for the formation of a generation of young translators..

¹ Yarmanov Fahriddin Norboyevich – katta o'qituvchi. Qarshi davlat universiteti.

E-pochta: fyarmanov@bk.ru

ORCID ID: 0000-0005-0297-130X

Iqtibos uchun: Yarmanov, F.N. 2023. "History and practice of French-Uzbek translation". O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2): 52-60.

Keywords: *translation, literary communication, French-Uzbek, literary translation, poetic translation, national mentality, form and content.*

References

- Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 2020 yil 21 may, №106 (7608).
- Xolbekov, Muhammadjon. 1988. O'zbek adabiyoti Fransiyada. Toshkent: "Fan".
- Nasriddinova, Yorqinoy. 2015. Remi Dor – folklorshunos olim va tarjimon. Toshkent: "Navruz" nashriyoti.
- Shirinova, Raima. 2013. "Kecha va kunduz" romani fransuz tilida. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 15 noyabr.
- Cho'lpon. 2012. "Kecha va kunduz", Birinchi kitob, "Kecha". Toshkent: "Akademnashr".
- Tchulpon. 2009. Nuit. – France: Bleu auteur.
- Anthologie de la poésie de l'Ouzbékistan. 2 tome. 2008. Établie, traduite de l'ouzbek et présenté par Hamid Ismailov et Jean-Pierre Balpe avec l'aide de Pahlavon Turgunov, Azam Obidov et Sirojiddin Tolibov. Édition du Sandre, 75016 Paris.
- Musaev, Qudrat. 2005. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik: Toshkent: "Fan" nashriyoti.

Translation of words relating to nationality in the "Journey" of Ibn Battuta

Abdunabiev Sunnat¹

Abstract

This article provides detailed information about the authentic translation of Ibn Battuta's "Journey" from Arabic into Uzbek. In it, the traveler described the unique customs, traditions, values and rituals of each nation and people in his work. And orientalist translators widely used translation techniques to make these sentences understandable to the reader.

Keywords: *Ifrad; tamattu; kiran kababus; kiswah; shavur; madrasah.*

Introduction

Each nation and people has its own customs, traditions, values and rituals. Ibn Battuta is very interested in such concepts in his work. He broadly describes not only the traditions of Central Asia, but also the ideas of other countries and explains them in detail in his work. One of the tasks of translators and orientalists is to translate the way of life, rituals and traditions of the peoples of that time in a form corresponding to the original, and bring them to the public. Ibn Battuta wrote down the customs that existed in different countries and became the traditions of their peoples in the work "Journey".

Main part

The traveler Ibn Battuta wears ihram with the intention of performing the Hajj "Ifrad" in the Al-Aqiq valley in Mecca:

This sentence is translated as follows:

"وكان رحيلنا من المدينة المنورة، نريد مكة شرفها الله تعالى. فنزلنا بقرب مسجد ذي الحليفة الذي أحرم منه رسول الله صلى الله عليه وسلم، والمدينة منه على خمسة أميال، وهو منتهى حرم المدينة. و بالقرب منه وادي العقيق. و هنالك تجردت من مخطط الثياب و اغتسلت و لبست ثوب احرامي و صليت ركعتين و أحرمت بالحج مفرداً". [6, 45]

¹ Sunnat B. Abdunabiev – Department of Oriental languages, Arabian teacher at University of World Economy and Diplomacy.

E-mail: abdunabiev@yahoo.com, sunnat1989@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2741-5113

For citation: Abdunabiev S.B. 2023. "Translation of words relating to nationality in the "Journey" of Ibn Battuta". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 61-76.



1-Figure. Valley Al-Aqiq of Medina

"We left Medina and headed towards Mecca and came to place near the mosque of Zul-Khulayfa, where Muhammad (peace be upon him) performed ihram. The village of Zul-Khulayfa and Medina are five miles away, and this is the last point of Medina. Next to it is a valley Al-Aqiq. There I took off my clothes, performed a full bath, put on ihram, performed two rak'ahs and wore ihram with the intention of performing Hajj Ifrad. "[2,

133.]

It can be seen that the form and content of the sentence are fully reflected in the translation. In order for readers to understand some of the words given in the translation, and the translator explained them.

Hajj Ifrad is one of three types of intention to perform Hajj. These are: "Ifrad" – the intention to perform only Hajj, "Kiran" – the intention to perform Hajj and Umrah together, and "Tamattu" is the intention to leave ihram after first performing Umrah, and then perform Hajj separately. This tradition performed in Arab countries, especially in the cities of Mecca and Medina.

Ibn Battuta tells about the customs of the people of Mecca in their prayers and about the places of their imams. In one of the parts of the work:

"و أما صلاة المغرب فإنهم يصلونها في وقت واحد، كل إمام يصلي بطائفته، و يدخل على الناس من ذلك سهو تخليط، فرما ركع المالكي بركوع الشافعي و سجد الحنفي بسجود الحنبلي. و تراهم مصيخين كل واحد إلى صوت المؤذن الذي يسمع طائفته لئلا يدخل عليه السهو". [6, 56]

"Everyone prays the evening prayer at the same time. Each imam prays with his group. That is why sometimes mistakes and confusion happen among people. The Maliki people follow the Shafi'i Imam and make ruku while the Hanafi people make Hanbali prostrations. You will see that each of them carefully listens to the voice of the muezzin, reading the takbir, so as not to make a mistake in his prayer. [2, 162.]

The translator explained the customs of that time. In the city of Mecca, the imam of the Shafi'i madhhab led the prayer at that time. Because it was the priority of the kings. At that time, the majority of the population of Mecca belonged to the Shafi'i madhhab.

But over time, this situation in Haram continued until 1926, when King Abdulaziz gathered the scholars of Mecca, raised the issue of praying behind one imam and was approved by the scholars. Since then, one imam has been appointed from each madhhab and it has been introduced that they lead prayers in turn.


Ibn Battuta, a traveler who visited Mecca, also mentioned the covering of the Kaaba:

"و في يوم النحر بعثت كسوة الكعبة الشريفة من الركب المصري إلى البيت الكريم، فوضعت في سطحه، فلما كان اليوم الثالث بعد يوم النحر أخذ الشيبليون في إسبالها على الكعبة الشريفة. و هي كسوة سوداء حالكة من الحرير مبطنة بالكتان و في أعلاها طراز مكتوب فيه بالبياض "جعل الله الكعبة البيت الحرام قياماً" الآية. و في سائر جهاتها طراز مكتوب بالبياض فيها آيات من القرآن، و عليها نور لأئح مشرق من سوادها". [6, 60]

"On the day of the sacrifice, the blessed kiswah, sent by an Egyptian caravan to Baitullah, closes over the Kaaba. On the third day after Eid al-Adha, the banu shayba is written over the Kaaba and hung below. It is a black silk coverlet with a linen lining.

Allâh has made the Ka'bah, the Sacred House, an asylum of security and benefits (e.g.Hajj and 'Umrah) for mankind, and also the Sacred Month and the animals of offerings and the garlanded (people or animals marked with the garlands on their necks made from the outer part of the stem of the Makkah trees for their security), that you may know that Allâh has knowledge of all that is in the heavens and all that is in the earth, and that Allâh is the All-Knower of each and everything [<https://quran.com/al-maidah/97>].

This ayah is embroidered with white silk on the top, and the rest of the ayah's of the Quran are embroidered with white silk on the other side. These white words shine like light on a black robe. [2, 172.]



2-Figure. Kaaba. Kiswah

We see that the translator translated the sentence very beautifully. In the original Arabic version of the sentence, part of the ayah of the Holy Qur'an is given. But N. Ibrokhimov gave a complete translation of the ayah. Thus, the meaning of the sentence is fully expressed.

In the sentence, the word "kababush" is again given. In fact, the word "kiswah" is translated as "covering". But the translator made this word beautiful and translated it as kababush. This indicates that the translator has a profound knowledge of the vocabulary. This custom is the custom of covering the holy house of Baitullah in the city of Mecca with a black veil with ayah's of the Qur'an written on

it. This custom still exists today.

The translator took note of another sentence. For example,

"و لقد ركبت يوما و دخلت السوق فلما توسطته و بلغت منتهم الزحام في موضع يقال له الشور لم أستطع ان اجوز ذلك الموضع لكثرة الازدحام و اردب الرجوع فما امكنتني لكثرة الناس فيقيت متحيرا و بعد جهد شديد رجعت. و ذكر لي بعض الناس ان تلك السوق يخف زحامها يوم الجمعة لأنهم يسدون سوق القيسارية و غيرها من الأسواق" [6, 172]

"Once, while riding through the city, I went to the bazaar and, having gone half way, I left a very crowded place called shovur. There were so many people that I could not move forward or backward. Bewildered, I stood still for a while, and with great difficulty set off. "Someone told me that there would be less traffic in this bazaar on Fridays because the Kaisaria bazaar and other markets are closed on that day." [2, 369]



3-Figure. Kaisaria bazaar

Focusing on the words and phrases indicated in this passage, French translators under the word "shovur" (noise) understood the Persian word "shor", that is, turmoil, quarrel and horse market. Actually this word means noise, turmoil, because there are many people there. If the reader understands this word in the works of French translators as a riot, a quarrel and a horse market, then this place gives the reader the impression that it is not a good place. In fact, N. Ibrokhimov notes that this is a typical picture of a bazaar crowded with people in Eastern countries.

We also defined the phrase "Fridays" above. As you know, Friday prayer is a day of rest for Muslims. In the Middle Ages, and even now in many Muslim countries, market stalls, some shops, sometimes everything are closed on this day. V. G. Tizenhausen, and V. V. Bartold translated this sentence as "Because the Khorezmians crowded that day in the market of Kaisaria and other markets." N. Ibrokhimov noted that such a translation is incorrect, and clarified the translation, saying that "on Fridays there are fewer traffic jams in this bazaar, because on this day the Kaisaria bazaar and others are closed," and then fills in the author's opinion.

Also note the following passage:

"فرکبت يوم الجمعة و توجهت الى المسجد الجامع و المدرسة، و هذه المدينة تخت امره السلطان
أزبك، و له فيها أمير كبير يسمى قطلودومور، و هو الذي عمر هذه المدرسة و معها من المواضع المضافة".
[6, 173]

"On Friday, I rode a horse to the mosque and madrasah. This city is under the rule of the Sultan of Uzbek, where his great emir named Kutlug Timur rules. This emir built a madrasah and other buildings adjacent to it. [3, 58.]

Some Western translators have translated the word "madrasah" as "land of knowledge". N. Ibrohimov believes that the word "madrasah" should be left as it is, without translation in the sense of a higher school. If the word "madrasah" is given in the meaning of "land of knowledge", the modern reader understands this expression based on modern requirements. If the word "madrasah" is given in its original form, then the reader will understand that this is a place of learning dating back to the 14th century. In this regard, we see that the translator N. Ibrokhimov has gone the right way.

If we talk about the explanation of the word "Uzbek", then here we are talking about Sultan Uzbek, Khan of the Golden Horde, who ruled in 1312-1340. The translator notes that in the Russian folk chronicles this word is distorted as "King Azvyak" [4, 18.].

In his work رحلة ابن بطوطة the word "صلاة" [275,6] is translated as a prayer, Ibn Battuta mentions that such a custom exists in the city of Khorezm. "They pray in such an orderly manner that I have not seen anywhere else. As is the custom, each muezzin walks around the houses near his mosque and calls that the time has come for prayer. Whoever does not participate in joint prayer, the imam punishes in front of the whole assembly. This, kamchin (whip) hangs in every mosque. In addition, a fine of five dinars will be imposed on such people, which will be used for the benefit of the mosque and for feeding the poor. It is said that this custom has existed since ancient times.

Conclusion

In the work "Journey" the main place is occupied by concepts characteristic of each people, that is, geographical names, names of historical figures, information about customs and rituals. This indicates that the author took into account every detail when writing the work and deeply studied the culture of this people.

References

1. A.Sait Aykut. İbn Battûta Seyahatnâmesi / Ebû Abdullah Muhammed İbn Battûta Tancî Özgün adı: *Rihletü İbn Battûta = Tuhfetü'tı-Nuzzâr fî Garâibi'l-Emsâr ve Acâibi'l-Esfâr*. Yapı Kredi Kültür Sanat Yayıncılık Ticaret Ve Sanayi. İstanbul. A: Ş., 2004.
2. Ibn Battuta's travel book "Tuhfat an-nuzar fi gharaib al-amsar wa ajaib al-asfor" - T.: Sharq, 2012.
3. Ibrokhimov N.I. Ibn Battuta and his journey to Central Asia. - T.: Sharq Bayozi, 1993.
4. Timofeev I. Ibn Battuta. - M., 1983.
5. E. Ochilov. Theory and practice of translation (study guide). - T.,
6. 2012. "كتاب رحلة ابن بطوطة المسماة "تحفة النظر في غرائب الأمصار و عجائب الأسفار". 1904. (سنة 1322 هـ).

Ibn Battutaning “Sayohatnoma” asarida milliylikka oid soʻzlarning tarjimada berilishi

Abdunabiyev Sunnat¹

Abstrakt

Mazkur maqola Ibn Battutaning “Sayohatnoma” asari arab tilidan oʻzbek tiliga asliyatga mos tarjima qilinganligi haqida batafsil maʼlumot berilgan. Bunda sayyoh har bir millat va elatning oʻziga xos urf-odatlarini, anʼanalari, qadriyat va marosimlarini oʻz asarida tasvirlab bergan. Sharqshunos tarjimonlar esa, ushbu jumalarni kitobxonga tushunarli boʻlishi uchun qanday tarjima usullaridan keng foydalanganliklari keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: *Ifrod; tamattuʻ; qiron; kaʼbapoʻsh; kisva; shovur; madrasa.*

Adabiyotlar

- A.Sait Aykut. 2004. *İbn Battûta Seyahatnâmesi / Ebû Abdullah Muhammed ibn Battûta Tancî Özgün adı: Rihletü İbn Battûta = Tuhfetü'tı-Nuzzâr fi Garâibi'l-Emsâr ve Acâibi'Î-Esfar*. Yapı Kredi Kültür Sanat Yayıncılık Ticaret Ve Sanayi. İstanbul. A: Ş.
- Ibn Battuta 2012. *Sayohatnoma “Tuhfat an-nuzor fi gʻaroib al-amsor va ajoib al-asfor”* – T.: Sharq.
- Ibrohimov, N.I. 1993. *Ibn Battuta va uning Oʻrta Osiyoga sayohati*. – T.: Sharq Bayozi,
- Timofyev, I. *Ibn Battuta*. – M., 1983.
- Ochilov, E. 2012. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti (oʻquv qoʻllanma)*. – T. كتاب رحلة ابن بطوطة المسماة "تحفة النظار في غرائب الأمصار و عجائب الأسفار". عمر حسين الخساب 1904. (سنة 1322 هـ)

^{1 1} *Abdunabiev Sunnat Botirovich* – Sharq tillari kafedrasini arab tili oʻqituvchisi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti.

E-pochta: abdunabiev@yahoo.com, sunnat1989@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2741-5113

Iqtibos uchun: Abdunabiyev S.B. 2023. “Ibn Battutaning “Sayohatnoma” asarida milliylikka oid soʻzlarning tarjimada berilishi”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 61-66

Sinxron tarjima jarayonida soʻz birikmasi va gap darajasida adekvatlikka erishish usullari

Raʼnoxon Xudjayeva¹

Hamroyev Ulugʻbek²

Abstrakt

Mazkur maqolada sinxron tarjima jarayonida adekvatlikka erishishda foydalaniladigan uslublar misollar asliyat va tarjima misollari yordamida tahlil qilinadi. Sinxron tarjima jarayoni talabidan kelib chiqib umumlashtirish, tushirib qoldirish, taxminlash kabi tarjima uslublari haqida mulohaza yuritiladi. Xulosa qismida mavjud muammolarga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: *sinxron tarjima, kalkalash, sintaktik noaniqlik, adekvatlik, ekvivalentlik, sintaktik kompressiya, taxminlash.*

Kirish. Tarjimada uchraydigan sintaktik muammolarni badiiy matnlar nuqtai nazardan koʻrar ekanmiz, eʼtirof etish lozimki, tarjimonlar sintaksis bilan bogʻliq muammolarga sinxron tarjima jarayonida koʻp bora duch kelishadi.

Bir tildan xorijiy tilga badiiy tarjima jarayonida sintaktik konstruksiya katta ahamiyatga egadir. Tarjimada sintaktik konstruksiya deganda asliyat tili sintaktik konstruksiyasining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olib, tarjima tilining sintaktik konstruksiyasiga moslashtirishga aytiladi. Badiiy tarjimada asliyat tili matnining sintaktik konstruksiyasining oʻziga xos xususiyatlariga jiddiy eʼtibor qaratib tarjima tiliga olib oʻtish sintaktik nomuvofiqlikni yuzaga kelmasligida alohida ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi *Tom was coming here with 5 dogs following* him matnini oʻzbek tiliga ingliz tilining sintaktik konstruksiyasining tuzilishiga ahamiyat bermagan holda soʻzma-soʻz tarjima qilsak, *Tom bu yerga kelayotgan edi, beshta itni oʻziga ergashtirib* koʻrinishida boʻladi. Maʼlumki, bu holat oʻzbek tili sintaktik konstruksiyasining oʻziga xosligi, matnning ohangdorligi, gap boʻlaklari va soʻz birikmalarining toʻgʻri joylashuviga jiddiy tasir oʻtkazadi va tarjima tilining matn hosil qilish xususiyatlarini oʻzida aks ettirmaydi. Shuning uchun bu holatda tarjima tili, yaʼni oʻzbek tilining sintaktik strukturasi meʼyorlariga eʼtibor qaratgan holda mazkur matnni oʻzbek tiliga *“Tom beshta inti oʻziga ergashtirib, bu yerga kelayotgan edi”* tarzida tarjima qilinsa, tarjima matni oʻzbek tilining oʻziga xos

¹ Xudjayeva Raʼnoxon Mutalibjonovna – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: xudjayeva.ra'noxon@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6790-4344

² Hamroyev Ulugʻbek Alisher oʻgʻli – magistrant. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Sinxron tarjima yoʻnalishi 2-kurs magistranti.

E-pochta: hamrayevulugbek1997@gmail.com

ORCID: 0009-0008-1204-3055

Iqtibos uchun: Xudjayeva, R.M., Hamroyev U.A. 2023. “Sinxron tarjima jarayonida soʻz birikmasi va gap darajasida adekvatlikka erishish usullari”. Oʻzbekiston: til va madaniyat, 3 (3): 67-77.

xususiyatlarini o'zida mujassam etgan holda o'zbekona sintaktik me'yorga muvofiq bo'ladi.

Tarjima qonuniyatlari va me'yorlariga muvofiq asliyat tilining sintaktik chizmalari tarjima tiliga olib o'tilmaydi. Biroq badiiy tasvir uslubining asosiy vositalaridan biri asl nusxaning asliyat nusxasining sintaktik qurilmasida o'z ifodasini topadi. Bu xususiyatni aks ettirmay turib, muallif o'z uslubini bera olmaydi. Bundan tashqari badiiy tasvirga mos belgilardan ritm, takror, so'z tartibi, inversiya, mantiqiy urg'u va boshqalar ham asl nusxa uslubi bilan bog'liqdir.

Sintaktik qurilma grammatik qonun-qoidalar asosida so'zlar, so'z birikmalari, shuningdek, gaplar birikuvidan iborat butunlik hisoblanadi. Agar asliyat tili gapi so'z birikmasi yoki qo'shma gap bo'lsa, tarjima tilida ham so'z birikmasi yoki qo'shma gap bo'ladi. Bu holat tarjima matnida kommunikativ xususiyatlarni namoyon bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Tarjimada so'z tartibi ham katta muammo tug'diradi. Har bir tilning o'z maxsus so'z tartibi mavjud va so'zlar muayyan tartibga ko'ra gapda o'z o'rniga ega bo'ladi. Ba'zi tillarda so'z tartibi shunchalik turg'uniki, ularni o'zgartirish juda qiyin.

Mana shunday tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi bilan sinxron tarjimada so'z birikmasini tarjima qilish o'ziga xos ahamiyatga ega.

Tahlil va metodologiya. Odatda sinxron tarjimada so'z birikmalarini tarjima qilishda asosan ikkita tarjima usuli qo'llanadi. Bular gapma-gap tarjima hamda kalkalash. Bu ikkalasi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Quyida ularni tarjimada foydalanish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

1.Gaplarni birma-bir tarjima qilish. Bunda so'zlar, gaplar so'zma-so'z tarjima qilinadi, grammatik struktura saqlab qolinadi. M: *I have talked to my friend – Men do'stim bilan suhbatlashdim, It goes without saying – O'z-o'zidan ma'lum.*

Committee of the Whole House	noun the House of Commons acting as a committee to examine the clauses of a Bill	Umumiy palata vakillari qo'mitasi
Committee on Standards in Public Life	noun a committee of the House of Commons set up to review the activities of holders of public office, including paid activities outside parliament, and to recommend any changes in practice that are necessary to make sure of high standards.	Xalq deputatlari qo'mitasi

Committee of Permanent Representatives	Noun in the European Union, the institution which prepares for meetings of the Council of Ministers and passes information between member governments and the Council of Ministers. Abbr COREPER	Doimiy vakillar qo'mitasi
Committee of Selection .n	the committee which chooses the members of the other committees in the House of Commons	Saylov qo'mitasi
Committee of theParliamentary Commission .n	Noun the committee which examines reports by the Ombudsman	Parlamentar komissiya qo'mitasi
Committee of the Regions	noun in the European Union, the body which brings together representatives of regional and local authorities from all over the Union	Mintaqalar qo'mitasi
Committee of the Whole . n	noun the committee formed of at least one hundred members of the House of Representatives in the USA, which discusses a bill which has already been debated in a Standing Committee	Butun qo'mita
Commonwealth of Independent States .n	an organisation formed of the majority of the republics which were in the past part of the USSR. Abbr CIS	Mustaqil davlatlar hamdo'stligi
Confrontation politics	the form of political activity, where opposing sides always attack each other and try to reduce each other's popular support, possibly creating an atmosphere of violence.	Siyosiy ziddiyat
Consensus politics	a form of political activity, where the main political parties agree in general on policy.	Siyosiy kelishuv
Congress of Deputies. n	the lower house of the legislature in Spain	Deputatlar kongresi
